



VATANPARVAR

ARMIAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazetadan chiqib boshlagan ● 2024-yil 17-may, №20 (3082)



3 ARMIYA
OSTONASI

4-5 "TARIXNI BEGONALAR
YOZMASLIGI KERAK"

6-7 "SAZAGAN"DA "VATAN
TAYANCHI YULDUZLARI"
JAMLANDI

VATAN KELAJAGI SHIJOATLI YOSHLAR QO'LIDA



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

MA'NAVİY XAVFSIZLIK – IJTIMOIY ZARURAT

“ Hozirgi vaqtda xavfsizlikni ta'minlash o'ta nozik va murakkab vazifaga aylanib, globallashuv sharoitida zamonaviy tahdidlarning turlari va ta'sir dinamikasi sezilarli ravishda ortdi. Xavfsizlikka tahdid uyg'otuvchi unsurlar, ularning faoliyat shakllari zamon bilan barobar takomillashib bormoqda. Tahdidlarga qarshi kurashishda puxta ishlab chiqilgan chora-tadbirlar mexanizmi, xavfsizlikni ta'minlashga davlat siyosati darajasidagi yondashuv, bu vazifaga oid “davlat konsepsiyasi”ni ishlab chiqish talab etiladi.

Bu borada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi” asarida “...buzg'unchi g'oyalarga ishonuvchanlik va ularning ta'siriga berilish holatlarini bartaraf etish uchun puxta ishlangan va zamonaviy ijtimoiy fan yutuqlariga tayanadigan ma'naviy ta'lim-tarbiyaning izchil amalga oshirilishi bilan erishish” mumkinligini ta'kidlaydi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda xavfsizlikka tahdidlarning turlari ko'payib borayotganligi, siyosiy, ijtimoiy, diniy, ekologik, radikalizm, ekstremizm kabi ko'plab muammolarning milliy xavfsizlik tizimlari doirasidan chiqib, umumjahon xarakter kasb etayotganligi zamonaviy globallashuv tendensiyalariga xos. Ijtimoiy tarmoqlarning taraqqiyoti esa yangi turdagi tahdidlar klassifikatsiyasini yaratmoqdaki, unga qarama-qarshi ravishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar salmog'ini oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Xavfsizlik – davlat va jamiyat, millat va shaxsning hayotiy muhim manfaatlariga nisbatan tahdidlarning ta'sirini aks ettiruvchi tegishli tashqi va ichki jihatlardan o'zini himoya qilish mexanizmini anglatadi.

Xavfsizlikni ta'minlash – davlatning bosh strategik vazifalaridan biri. Umumiy shaklda xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat – boshqaruv va nazorat mexanizmlarining barcha tamoyillaridan foydalanish huquqiga ega. Davlat va jamiyat boshqaruv organlari umumiy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan omillarni o'rganishi, tahlil qilishi, ularni bartaraf etish tadbirlarini ko'rish choralari ishlab chiqishi shart.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash – davlatning milliy qadriyatlarini, an'analari, madaniyati, manfaatlarini va turmush tarziga bo'lgan real tashqi va ichki salbiy ta'sirlardan himoyalash, tahdidlardan bartaraf etilgan holati tushuniladi.

Ma'naviyat – alohida bir ijtimoiy hodisa emas. U barcha sohalarga, turli jabhalarga taalluqli ijtimoiy jarayon. Shu jihatdan, ma'naviy taraqqiyotga xavf solishi mumkin bo'lgan har qanday ko'rinishdagi ta'sirlar – ma'naviy xavfsizlikka tahdid sifatida tasnif etiladi.

Mafkuraviy tahdidlar zamon va makon bilan chegaralanmasligi jihatidan yanada xatarlidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bemisil rivoji, internet maydoni, ijtimoiy tarmoqlar mafkuraviy tahdidlarning ta'sir doirasi kengayib borishiga zamin yaratmoqda.

Ma'naviy xavfsizlik – millatning asl qadriyatlarini, an'analari yot bo'lgan turli mafkuraviy g'oyalar ta'siridan saqlashni anglatadi. Ma'naviy asoslari mustahkam jamiyatning tashqi ta'sirlarga berilishi kam bo'ladi. Asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, sof aqidaviy qarashlar va mo'tadil diniy e'tiqod, bag'rikenglik prinsiplari – ma'naviy xavfsizlikning bosh mezonlari sanaladi.

Bugungi kun voqealarida siyosiy, diniy, mafkuraviy tahdidlar muayyan bir davlat, mintaqa mamlakatlari xalqlariga xos jarayon emas. Tahdidlar chegara bilmaydi. Tahdidlar kategoriyasi, mazmun-mohiyatiga qarab xavfli darajasi belgilanadi. Zamonaviy radikalizm, fundamentalizm, ekstremizm illatlari an'anaviy tahdidlar – noqonuniy qurol, narkotik moddalar savdosi,



noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, siyosiy-ijtimoiy tanglik bilan bir qatorda xatarli o'rin egallagan. Ijtimoiy xavfi turli xarakterdagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashishda davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlari, shuningdek xalqaro hamjamiyatchilikning sa'y-harakatlarini birlashtirish orqaligina samarali natijalarga erishish mumkin. Bu o'ta murakkab vazifa. U xalqaro huquqiy-me'yoriy munosabatlar va konsensusni talab etadi.

Ma'naviy xavfsizlikka jiddiy xavf tug'diruvchi, davlat va jamiyatning barqaror rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi zamonaviy tahdidlar orasida radikalizm markaziy o'rin egallaydi. Radikal qarashlarga burkangan turli mafkuraviy tahdidlar millatning ma'naviy asoslariga putur yetkazish orqali jamiyatda barqarorlikni keltirib chiqaradi. Undan himoyalashning eng samarali usuli ma'naviy xavfsizlikni mustahkamlashdan iborat.

Radikalizm turli siyosiy tuzilmalar, subyektlar o'rtasidagi aloqalar, davlat va jamiyat munosabatlari, millatlararo, dinlararo, sivilizatsiyalararo muloqotda siyosiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omildir. Davlat va jamiyat, millat, shaxs barqarorligida salbiy mafkuraviy ta'sirlar jiddiy ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Turli mafkuraviy ta'sirlar ostida ma'naviy negizi mustahkam bo'lmagan jamiyat tanazzulga yuz tutishi mumkin. Bu esa ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash – davlat va milliy xavfsizlik tizimlarini mustahkamlashda ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Radikalizm, birinchi navbatda, shaxs ongi va dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan mafkuraviy ta'sirlar majmuyi. Ko'p hollatlarda radikal ta'sirlarga berilgan shaxslar o'zi ishongan,

g'oyalarga sadoqatli, ruhan tetik, qat'iyatli ko'rinadi. Aslida esa ularning dunyoqarashida, tashqi va ichki hissiyot o'rtasida kuchli raqobat kurashi boradi. Ularning ongida psixologik taranglik kuzatilib, ruhiy jihatdan beqaror holatda bo'lishadi. Bunday beqaror psixologik holatdagi shaxsni turli g'oyalarga ishontirish, ruhiy ta'sir o'tkazish oson kechadi.

Radikalizmning mafkuraviy tahdidi ongi va dunyoqarashi shakllanib ulgurmagani aholi qatlamlari, ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikka uchragan shaxslar, uyushmagan yoshlarga ko'proq ta'sir qiladi. Mazkur illat jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarish, uning eng faol qatlami bo'lgan yoshlarni turli g'oyaviy ta'sirlar doirasiga tortishi bilan xatarlidir. Ana shu xatarning oldini olishda ham ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash harakati oldinga chiqadi.

Ma'naviy qashshoq shaxslarga xos xususiyatlardan biri – tahliliy ongning mavjud emasligi. Bu toifa shaxslar har qanday mafkuraviy ta'sirga, hatto agressiv harakatlarga moyil, tez beriluvchan bo'ladi. Ularni psixologik beqarorlikka tushirish, manipulyatsiya qilish, g'oyalarga ko'r-ko'rona ergashtirish oson kechadi. Shuning uchun ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash tizimli va milliy qadriyatlarini mustahkam saqlagan holda amalga oshirilishi lozim. Har bir xalqning milliy mentaliteti asosida vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya konsepsiyasi shakllanadi. Ko'p millatli, bag'rikenglik prinsiplari qat'iy amal qilinadigan O'zbekiston sharoitida ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash ustivor vazifalardan. O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichi – Yangi O'zbekistonni qurish davrini boshladi. Bu murakkab va sharaflı yo'lda millat birdamligi, davlat va jamiyat barqarorligi ma'naviy barkamollik tamoyili rivojiga bog'liq bo'ladi.

Ko'p asrlık tarixiy tamaddun, milliy an'ana va qadriyatlarga boy o'lkamizda tashqi mafkuraviy tazyiqlarga qarshi tura olishga xizmat qiladigan ma'naviy-ma'rifiy meros mavjud. Bu – mamlakatimizning boy ma'naviy-ma'rifiy xazinası – taniqli ajdodlarimiz va ularning jahonga mashhur, bebaho ilmiy merosidir. Bularning barchasi mamlakatimiz barqarorligi, ma'naviy xavfsizlikning mustahkamligiga xizmat qilishga qodir bebaho ilmiy meros, ulkan hayotiy tajribadir.

Ta'lim, tarbiya, ma'naviyat doimo moddiy taraqqiyot bilan barobar borishi, undan oldinda yurishi kerak. Buyuk ajdodlarimiz Beruniy, ibn Sino, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Farg'oniyalar o'rta asrlarning yetuk allomalari, jadidlar o'z davri tamaddunidan o'zib ketgan shaxslar edi. Xuddi shu xislat ularning asrlar davomida nomi abadiy saqlanib, asarlari, merosini avloddan avlodga o'tib kelishiga xizmat qilib, ularning ma'naviy merosi bugungi kunga kelib ham xalq, yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishda davom etmoqda. Ushbu holatning o'zi ham ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash ishlarida samarali natijalarga sababchi bo'lishiga dalildir.

Sarvarjon G'AFUROV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti bo'lim boshlig'i,
siyosiy fanlar doktori, professor





So'nggi yillarda harbiy sohaga bo'layotgan e'tibor tufayli bugungi kunga kelib yuzlab harbiy obyektlar, dala-o'quv maydonlarining infratuzilmasi butkul yangicha qiyofa kasb etib, tamomila zamonaviy ko'rinishga ega bo'lmoqda. Bularning barchasi harbiy kasb nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilarga qulay va xavfsiz xizmat sharoitlarini yaratishga qaratilgan.

A

RMIYA OSTONASI



Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangilanishlar mamlakat mudofaa salohiyatini oshirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish, xalqimizda armiyaga bo'lgan yuksak ishonchni mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi harbiy-ma'muriy sektori tomonidan navbatdagi harbiy obyekt – Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasining yangidan qurilgan binosining foydalanishga topshirilishi bunga yaqqol misoldir.

Mudofaa ishlari boshqarmasining ma'muriy binosini foydalanishga topshirish marosimida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Amanbay Orinbayev hamda Vazirlar Kengashi Raisi Farhod Ermanov, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon

Shermatov, kuch tuzilmalari rahbarlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda mudofaa ishlari boshqarmasi shaxsiy tarkibi ishtirok etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi mudofaa ishlari boshqarmasi har bir o'spirin yigit uchun armiyaning ostonasi, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradigan maskan bo'lib qolishini tiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasining yangi binosi endilikda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yuksaltirishga, eng sara qoraqalpog'istonlik yoshlarni armiya saflariga tayyorlashda ko'maklashishga, xalqimiz va armiyamiz o'rtasidagi mustahkam ko'priklar vazifasini o'tashiga ishonch bildirdi.

Tantanalni tadbirda so'z olgan Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni Prezidentimiz tashabbusi

bilan 2017-yilda tashkil etilgan harbiy-ma'muriy sektor tizimi haqiqatan ham yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovon turmushi uchun xizmat qiladigan noyob bir tizim ekanini e'tirof etdi. Qoraqalpog'iston Respublikasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlariga hamohang tarzda zamonaviy va ko'rkam ko'rinishda barpo etilgan mudofaa ishlari boshqarmasining yangi binosi endilikda Qoraqalpog'iston xalqiga xizmat qilib, harbiy xizmatchilar va xodimlarga juda ko'p qulayliklari bilan afzal kelishini ta'kidladi.

Zamonaviy dizayn asosida qurilgan va aholiga xizmat ko'rsatish uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan ushbu binoda navbatchilikni o'tash uchun xona, boshqaruv punkti, arxiv, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish uchun maxsus joy, chaqiriluvchilar va hisobda turuvchilar haqida elektron ma'lumotlar bazasini yuritish xonasi hamda 30 ta

xizmat xonasi mebel, qish-yoz tizimida ishlaydigan sovutish tizimlari, kompyuter jamlanmalari va boshqa zarur buyumlar bilan to'liq jihozlandi.

Armiyaning jangovar qudrati, salohiyati, buyuk ajdodlarimizning jasoratidan so'zlovchi ko'rgazmali vositalar bilan bezatilgan binoning ichki devorlari bu yerga keladigan yoshlarning Qurolli Kuchlarimiz haqida kengroq bilimlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari va "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari haqida batafsil ma'lumotlarni yetkazadi.

Binoning ochilish marosimida ramziy tasma kesilganidan keyin tadbir ishtirokchilari bu yerda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

“TARIXNI BEGONALAR YOZMASLIGI KERAK”

milliy qo'shin orzumandi
Hoji Muin Mehriy

Jadid taraqqiyparvari shoir Hoji Muin Shukrulla o'g'li 1883-yilning 19-mart kuni Samarqand shahrining Ruhobod mavzeyida dunyoga kelgan. Otasi Shukrullo savdogar bo'lib, 32 yoshida vafot etadi. O'n ikki yoshida ham ota, ham onasidan ayrilgan Hoji Muin Ruhobod guzarining masjid imomi – bobosi Mirsaid Muhammadsharif qo'lida tarbiya topadi. Avval eski maktabda, so'ng madrasada ta'lim olgan Hoji Muin o'z davrining taniqli mudarrisi va shoiri Sayidahmad Vasliydan arab tili qoidalari bilan birga mumtoz she'riyatga muhabbatni ham yuqtirdi. U 1901-yili haj safaridan qaytgach, o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1903-yili Abduqodir Shakuriylar ta'sirida Xo'ja Nisbatdor mahallasida o'zining “usuli jadid” maktabini ochadi.

Xuddi shu yili ustoz Vasliyning uyida Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishuvi uning hayotida yangi davrni boshlab berdi. Ayniqsa, Behbudiyning “Muxtasari jug'rofiyai umumiy” nomli asari Hoji Muinda juda katta taassurot qoldiradi. 1908-yili ilg'or jadid muallimi sifatida “Rahnamoi savod” alifbo darsligini yozdi. 1914-yili o'z uyida “Tarbiyat” nomli xususiy “usuli jadid” maktabini ochadi. Hoji Muin 1908-yili fors tilida “Rahnamoi savod”, Ismatulla Rahmatullazoda bilan hamkorlikda o'zbek tilida “O'qituvchi” nomli alifbo kitoblarini bitadi.

Hoji Muin 1900-yildan “Nahif” (*Ojiz*), “Mehriy” taxalluslari bilan an'anaviy mavzularda she'rlar yozgan bo'lsa, 1908-yildan ustoz Behbudiy ta'sirida ma'rifatparvarlik ruhida she'rlar va publitsistik maqolalar yoza boshlagan. Hoji Muin mashhur ma'rifatparvar A. Shakuriyning iltimosi bilan bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha she'rlarni turkiydan forsiyga tarjima qiladi. Keyinchalik M. Behbudiy ko'magida ularni “Guldastai adabiyot” nomi bilan to'plam holida chop ettiradi va to'plamga o'zining “Xitob va go'daki beilm”, “Nasihati”, “Muxammas”, “Ittifoq”, “Shikoyat”, “E'tirof” kabi she'rlarini ham kiritadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush”ini matbuotda olqishlab chiqqan Hoji Muin tez orada o'zi ham sahna asarlari yoza boshlaydi. Dramaturgning “Eski maktab, yangi maktab” pyesasida eski usul maktabi bilan yangi usul maktabi o'quv tizimidagi farq tasvirlanib, “usuli jadid” maktabi olqishlansa, “To'y”, “Ko'knori”, “Mazluma xotin” kabi sahna asarlarida xalq orasida urfga kirib qolgan yomon odatlar qoralanadi. Bulardan tashqari, “Maorif qurbonlari”, “Juvonbozlik qurbonlari”, “Boy ila xizmatkor”, “Qozi ila muallim” kabi pyesalari ham sahnalashtirilgan.

1913-yili Behbudiyning “Samarqand” gazetasida va “Oyina” jurnalida ishlay boshlaydi. Ijodkor va tashkilotchi sifatida Behbudiyning

rag'bat hamda hurmatini qozonadi. 1914-yili Behbudiy “Oyina” ishlari bilan ikki oylik safarga chiqqanida jurnalning mas'ul mudirligiga Saidrizo Alizodani, muvaqqat muharrirlikka esa Hoji Muinni tavsiya etib, hukumat ruxsatini olgan edi. Hoji Muin millatni uyg'otish uchun uning haqqoniy tarixini yaratish zarur deb hisoblaydi. Xususan, 1915-yilda “Oyina” jurnalida chop etilgan “Milliy tarix haqida” sarlavhali maqolasida tarix yozishni begonalarga emas, “turkistoniyalar”ning o'zlariga havola qiladi. Buning uchun jiddiy g'ayrat va shijoat lozimligini, barcha ziyolilar bu ishga astoydil kirishsalar, biror natijaga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Amaliy tashabbus bilan chiqqan publitsist xalq qalbida iftixor va g'urur hissini uyg'otadigan, yuksalishga chorlaydigan tarix kitobining yaratilishini orzu qiladi.

Hoji Muin Shukrulla o'g'li 1916-yil 2-noyabrda samarqandlik safdoshlari Abduqodir Shakuriy va shoir Faxriddin Rojiylar bilan mardikorlikka olinib, Minsk guberniyasining Novoborisov shahri yaqinidagi o'rmonlarda daraxt kesish, xandaq qazish ishlari bilan shug'ullanadi. 1917-yilning mayida, Fevral o'zgarishidan so'ng ona yurtiga qaytadi va matbuot ishlariga sho'ng'ib ketadi. Avval Fitratning “Hurriyat” gazetasida ishlaydi, so'ng 1918-yilning 11-iyunidan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasini yo'lga qo'yadi. Turkiston kelajagi uchun Farg'ona vodiysida hayot-mamot janglari boshlangan bir vaqtda gazetaning 1918-yil 2-avgust sonida Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur “G'alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya” maqolasi, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining 1918-yil 13-avgust sonida esa Hoji Muinning “Bizga nima kerak?” maqolalari chop qilindi. Mazkur ikki maqolada nafaqat mualliflarning, balki butun Turkiston jadid taraqqiyparvarlarining askarlik, milliy qo'shin tuzish bo'yicha qarashlari ilgari surilgan deyiшимiz mumkin.

Jumladan, Hoji Muin: “Hozirgi vazifamizg'a qarag'anda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxiliy urush va inqilob, xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanmaqdadurki, bu urushdan Vatan va hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo'r bir quvvatg'a molik bo'lmog'imiz mutlaqo lozimdir”, deydi. Shu o'rinda, Hoji Muin askarlik masalasi negizida xalqqa ozodlikka chiqishni targ'ib qilgan, birlashishga chorlab: “Dunyoda zolim ostinda nomussiz yashamakdan huquq va hurriyat yo'linda nomus bilan o'lماك ming marta yaxshiroqdir. Ey Turkiston



xalqi! Oyoqqa tur! Dushmanlaringni bos! Yurtingni saqla! Ey turkistonli turk o'g'li! Yarog'ingni ol! Yovingni ot! Hurriyatningni saqla!" deb bong uradi. Keyingi maqolasida esa: "Askarsiz millat jonsiz gavda hukmidadir. O'zining yerlik xalqidan askari bo'lmagan bir yurt qo'riqchisiz bir istehkom kabidir. Askarlik bir millatning hayot-mamot masalasini hal qilish uchun zo'r ro'llar o'ynaydurg'on bir kuchdir. Har bir yengish va yengilishning boisi askardir", deb uqtirgan.

Hoji Muin "Zarafshon" gazetasining 1923-yil 21-iyun sonida bosilgan "Askarlik to'g'risida" maqolasida yuqoridagi fikrlarini rivojlantirib, askarlikning qudrat belgisi ekanligini tarixiy dalillar bilan asoslar ekan: "Nikolayni taxtdan tushirgan - askar, sho'rolar hukumatini bu kungacha muhofaza qilib kelgan ham askar bo'ladi. Turkiston turklari ham bir vaqt urushqoqliqda mumtoz va mashhur edilar. Faqat bu so'nggi asrlarda o'zlarining askariy kuchlarini Ovrupa jahongirlariga qarshi tashlamay, o'zaro urushg'a sarf etdilar. Oxiri, ularning yurtimizni istilo qilishlarig'a sabab bo'ldilar. Shuning uchun bundagi xalqda bora-bora askarlik ruhi so'nib ketdi", deydi. 1918-yili boshlangan harbiy xizmatga olish ishlari to'g'ri tashkil qilinmay, yoshlarning majburiy ravishda askarlikka olinishi xalqning noroziligiga sabab bo'lganini, askarlarning armiyadan ommaviy qochib ketish holatlari yuzaga kelganini Muin "Xalqning ahvoli ruhiyasi bilan hisoblashmaganimiz uchun bu to'g'rida zo'r xato qildik. O'shal vaqtda faqat ixtiyoriy suratda askar o'lg'onimizda, hozirgacha o'n minglarcha muntazam askarga ega bo'lur edik", deya ochiqladi.

Hoji Muin 1923-yilda hukumatda yana askarlikka olish masalasi kun tartibiga qo'yilganini aytib, ilgari xatolarni takrorlamaslikka chaqirar ekan: "Ana bukun yana yerlik xalqdan askar olish masalasi qo'zg'atilub turadir. O'rtoq Troskiy ham o'zining maktubida "yerliklardan sekin-sekin askar olish kerak" mazmunida bir-ikki so'z yozib o'tadiri. Shundan ham ma'lum bo'ladir, bu kunlarda yana hukumat Turkiston xalqidan askar olishni tasvib va maslahat ko'rgan. Lekin bu daf'a qaysi ravishda, qanday sharoit bilan askar olinadur? Bu ham bilgulik emas. Shoyad bu to'g'rida hukumatning yuqori doiralarida kengash va muzokaralar bo'lib turg'ondir. Har holda, bu daf'a avvalgi xatolar takror voqe' bo'lmas, deb o'ylaymiz", deya fikrini tugallaydi. Shu o'rinda u askarlikka olish bo'yicha quyidagi takliflarni beradi: "Harbiy xizmatga olish tartibli va kuchli tashviqotdan so'ng majburiy emas, ixtiyoriy suratda bo'lishi lozim; askarlik xizmatining muddatini qisqartirish kerak; harbiy xizmat bilan bog'liq qonun va qoidalar yengillashtirilishi shart; yerlik xalqdan zobitlar yetishtirish uchun Turkistonning har bir shahrida askariy kurs va maktablar ochish

kerak; askarlarning maishatlarini yaxshi ta'min etish va ba'zi urf-odatlariga mudoxala qilmaslik va o'zlarini Turkistondan boshqa davlatga yubormaslik kabi qoida va yon berishlar e'lon qilish lozim". Hoji Muin hukumat shu tavsiyalarni inobatga olsa, "Askarlikka olish muvaffaqiyatli chiqishi, shuning bilan barobar har bir ko'ngilli askarga o'z yaqinlaridan ikki kishining kafil bo'lishi yoki shunga o'xshash boshqa bir tadbir shart qilinsa, kelgusida ul askarning qochishlig'i va yo hukumatga qarshi xiyonat qilmaslig'i uchun bir amniyat hosil bo'lur edi", deb uqtiradi. Bu fikrlar oradan yuz yil o'tganiga qaramay, hamon o'ta muhim ahamiyatga molikdir.

Hoji Muin 1920-yilning 1-yanvaridan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasiga ilova sifatida "Tayoq" nomli hajviy jurnal chiqaradi. 1922-yildan "Zarafshon" gazetasining tahririyatida ishlab, 1924-yilning 1-iyunidan unga qo'shimcha bo'lib chiqqan "Mashrab" hajviy jurnaliga asos soladi.

Hoji Muin sovetlarning savodsizlikka qarshi kurash yillarida yana muallimlik sohasiga qaytib, 1925-yilda "O'qitg'uvchi", "Rahbari besavodon" alifbolarini tuzadi. 1926-yildan "Ovozi tojik" gazetasiga adabiy xodim va musahhih bo'lib ishga o'tadi. Biroq Turkiston jadalining otasi Mahmudxo'ja Behbudiyning safdoshi Hoji Muinga nisbatan sovet ma'murlari hamisha ishonchsizlik nazari bilan qaradi. 1929-yili "Ovozi tojik"da texnik xatoga yo'l qo'ygan, degan bahona bilan GPU tomonidan Sibirning Kapek okrugi Pugachan rayoniga surgun qilinadi. 1932-yili surgundan Vatanga qaytgach, 1932-1934-yillari O'zbekiston davlat nashriyotining tojik bo'limida adabiy xodim, 1934-1937-yillarda 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasining nashri afkori bo'lgan "Qizil yulduz" harbiy gazetasida ish olib boradi. Gazetaning keng omma orasida mashhur bo'lib ketishida tajribali publitsist Hoji Muinning katta xizmati bor edi.

Uning musahhihligi yana baxtsizlik olib keladi. "O'tishga hukm etilgan xalq dushmani Muralov" deganning ism-sharifi shu yillarning dovrug'li arbobi Molotov nomi bilan almashib ketadi. Hoji Muinni bu ishni ongli ravishda qilganlikda ayblab, uni 1938-yil 24-yanvar kuni sovet jazo idoralari yana qamoqqa oladilar. Hoji Muin NKVD qoshidagi mash'um "uchlik" tomonidan "Aksilsho'roviy targ'ibot bilan shug'ullanganlik", "josuslik, buzg'unchilik", "ingliz razvedkasiga xizmat etganlik" kabi to'qima ayblovlar bilan 10 yilga qamoqqa hukm qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, u 1942-yilning 21-iyulida Perm oblastining Solikamsk shahrida vafot etgan. Xalqimizning buyuk farzandi, jaded bobokalonimiz Hoji Muinning pokiza nomi 1963-yili oqlandi.

Aytish mumkinki, Turkiston jadalari yoshlarni harbiy xizmatga jalb qilish, milliy qo'shin tuzishning huquqiy asoslarini yaratish borasida yetarli ilm va tajribaga ega bo'lganlar. Ular askarlik Vatani uchun buyuk xizmat ekanligini e'tirof etgan holda, yoshlarni harbiy xizmatga jalb etishni xalqning orzu-istaklari bilan uyg'un holda olib borishni muhim deb bilganlar. Darhaqiqat, Turkiston jaded taraqqiyparvarlarining yetakchilaridan bo'lgan Hoji Muinning ijodiy va publitsistik merosi ham zalvarli. U o'zining kundaligida yozishicha, 1907-1937-yillar davomida 23 xil gazeta va jurnallarda 200 ta maqola, 400 ta xabar hamda o'zbek va tojik tillaridagi 1 500 misraga yaqin she'rlari bilan qatnashgan. Hoji Muin tom ma'noda vatanparvar, qo'rqmas va shijoatli jurnalist. U "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1919-yil 23-yanvar sonidagi maqolasida "Bizlar hech kimga xushomadgo'ylik qilmaymiz va hech kimdan qo'rqmaymiz. Bizlar vijdon va nomusimizni pulg'a sotmaymiz. Bizning do'stimiz va ma'shuqimiz yolg'iz haqiqat bo'lg'onlig'i uchun haqiqat va to'g'riliqdan boshqa hech kimni rioya etmaymiz. To'g'riliq yo'linda bo'hton, hib va hatto o'limdan ham qo'rqmaymiz. To'g'riliq va muqaddas maslakimiz yo'linda qurbon bo'lmoqni o'zimiz uchun bir sharaf deb bilamiz", deydi.

Ha, u shunday yashadi va o'z hayotini tahlikaga solib bo'lsa-da, yurt va xalq manfaati uchun matbuot maydonida mardona kurash olib bordi, haqiqiy jaded taraqqiyparvarlarimizdan biri bo'lib qoldi.

Bahrom IRZOYEV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori



“SAZAGAN”DA “VATAN TAYANCHI



Markaziy harbiy okrugga qarashli “Sazagan” poligonida “Vatan tayanchi” otryadlari o‘quvchi-yoshlari o‘rtasida mudofaa vazirining kubogi uchun bo‘lib o‘tgan “Vatanparvarlar” harbiy-sport musobaqalarining respublika bosqichini uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar bevosita kuzatib borishar ekan, yakdil bir xulosani aytishdi:

“10-11-sinf o‘quvchilari ongida bu qadar fidoyilik, jamoa uchun kurash, bir-biriga eng og‘ir vaziyatlarda yordam bera olish xislatlarini amalda ko‘rib, chindan ham ular Vatanga tayanch bo‘la oladigan yoshlar ekaniga amin bo‘ldik”.



Chindan ham jamoalar o‘z hududlarining eng sara yoshlari, himoyachilari sifatida maydonga chiqqan. Quyosh tafti ulkan “Sazagan” bag‘ini qanchalik qizdirmasin, yuraklardagi o‘t-olov undan-da haroratliroq, jo‘shqinroq edi.

Musobaqaning ilk ochilish kunlaridan boshlab, to so‘ngigacha bo‘lib o‘tgan amaliy va nazariy jarayonlar yurtimizning har go‘shasidan kelgan jamoalarni **bir bayroq, bir maqsad, bir ishonch ostida birlashtira, do‘stlashtira oldi.**

Keling, ushbu musobaqaning har bir kuni haqida muhtasar to‘xtalib o‘tamiz.

Jamoalar “Sazagan” dala-o‘quv maydoniga yetib kelishganidan so‘ng oldinda kutilayotgan murosasiz kurashlarga hozirlik ko‘rdilar.

BIRINCHI KUN

Musobaqa ishtirokchilari harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan musiqa sadolari ostida jamoa-jamoa bo‘lib saf maydonidan joy olishdi. Tantanali ochilish marosimida yuqori qo‘mondonlik vakillari, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashining mas‘ullari, jamoatchilik tashkiloti faollari hamda faxriylar ishtirok etgani **tom ma‘noda tanlov saviyasining yanada oshishiga xizmat qildi.**

So‘z olganlar ko‘zlarida o‘t chaq nab turgan respublikamizning ilg‘or yoshlariga o‘zlarining samimiy tilaklarini bildirib o‘tdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati boshlig‘i polkovnik Bahrom Zulfiqorov mudofaa vazirining kubogi uchun “Vatan tayanchi” otryadlari a‘zolaridan tuzilgan 14 ta jamoa bir joyga jam bo‘lib, teng raqobatlar ostida o‘z qobiliyatlarini namoyish etishlarini iftixor bilan ta‘kidlab o‘tdi. Ayniqsa, maydonga davlat bayrog‘i, Mudofaa vazirligi hamda Amir Temur bayroqlarining birga olib chiqilishi zamirida ham o‘lmas va boy tariximiz, jangovar qudratimiz uyg‘unligi aks etdi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Ochilish marosimining bayramona qismi harbiy xizmatchilarning qo‘l jangi chiqishlari, Faxriy qorovulning ko‘rgazmali namoyishlari, konsert dasturlari, estrada xonandalari va san‘at namoyandalarning turli

tarixiy sahna chiqishlari bilan yanada fayz oldi. Maydonda Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur singari jahongashta sarkarda va davlat arboblarning teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari namoyish etildi.

So‘ngra jamoalar **“Harbiylashtirilgan estafeta”, “Jabrlanuvchiga birinchi yordam ko‘rsatish”, “Turnikda tortilish” va “Mohir mergan”** shartlari bo‘yicha o‘zaro kuch sinashishga kirishdi.

Natijalarni barchaning ko‘z o‘ngida shaffof va xolis baholab borayotgan hakamlar hay‘ati a‘zolari jamoalarning har bir shart bo‘yicha olgan ko‘rsatkichlarini belgilangan qoidalar asosida baholab bordi.

Shuningdek, kunning ikkinchi yarmida **“Vatan tayanchi yulduzlari”** sharti bo‘yicha ham tanlovlar tashkillashtirildi.

Ta‘kidlash joizki, bu galgi musobaqa avvalgilaridan o‘zining yangiliklarga boyligi, madaniy va milliy qadriyatlarimizga professional darajada e‘tibor qaratilgani bilan ajralib turdi. Mamlakatimizning har bir hududidan saralanib, tanlanib kelgan jamoalar o‘z viloyatlarining asriy tarixi, qadimiy urf-odatlarini o‘zida aks ettiradigan badiiy chiqishlarni ham tayyorlab kelganki, jarayonlarning madaniy qismida bu jihatlar yorqin namoyon bo‘ldi.

Ushbu musobaqa nizomiga ilk bor yangilik sifatida kiritilgan **“Vatan tayanchi yulduzlari”** shartining o‘ziyoq ko‘plab



YULDUZLARI” JAMLANDI



olqish-u e'tiborlarga sazovor bo'ldi. Bir-biridan qiziq va kutilmagan spektakl va musiqiy chiqishlar, xalqimizning madaniy qiyofasini madh etuvchi termalar, laparlar ohangi barchaning diqqatini o'ziga qarata oldi.

IKKINCHI KUN

Musobaqaning amaliy bosqichi o'z yakuniga yetganidan so'ng jamoalar aqliy salohiyat va o'zaro jipslikni sinovdan o'tkazuvchi "Safda qo'shiq aytish" hamda "Temur tuzuklari bilimdoni" kabi shartlarni bajarishga kirishdilar.

Dastavval, erta tongdan maydon uzra saf tortgan jamoalar jo'rovda qo'shiq aytgan holda, shaxdam qadamlar bilan olg'a yurishdi. "Safda qo'shiq aytish" shartini baholab borgan hakamlar hay'ati jamoalardagi kayfiyat, ritm, jangovar qo'shiqning shiddatkorligi, ishtirokchilarning o'zini tuta olish ko'nikmalariga jiddiy e'tibor qaratdi.

Uzoq kutilgan **"Temur tuzuklari bilimdoni" chinakamiga bahs-munozaralar, intellektual bilimlar bellashuviga aylanib ketdi.** Jamoa a'zolarining test savollari orqali o'zlarining hozirjavoblighi, aql-u zakovatini namoyish etar ekan, musobaqaning final bosqichiga chindan ham munosiblar yetib kelganiga amin bo'lasiz.

Kun yakunida musobaqa ishtirokchilari Samarqand shahrining tarixiy qadamjolari va obidolari bo'ylab sayohat qilishdi.

MUSOBAQANING SO'NGGI KUNI

Unutilmas taassurotlarga boy bo'lgan musobaqaning taqdirlash marosimi barchaning yodida qoladigan bo'ldi.

Tantanalı taqdirlash marosimida mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev so'zga chiqib, yildan yilga yuksalib, ommalashib borayotgan ushbu musobaqa minglab yoshlarni vatanparvarlik ruhida

birlashtirayotgani, shu bilan birga, ulardagi ertangi kunga bo'lgan yuksak ishonch tuyg'usini mustahkamlayotgani, bu esa bosh maqsad ekanini aytib o'tdi.

Demak, "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalarining respublika bosqichi g'olib va sovrindorlari quyidagicha ko'rinishda yakun topdi:

Birinci o'rin – Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonliko'l tumanining "Lochin" va Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanining "Lochin" jamoalariga;

Ikkinchi o'rin – Toshkent shahri Uchtepa tumanining "Temurbeklar" jamoasiga;

Uchinchi o'rin – Qashqadaryo viloyati Muborak tumanining "Yosh lochinlar" jamoasiga nasib etdi.

G'olib va sovrindor jamoalarga mudofaa vazirining kubogi, diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Shuningdek, ishtirokchilar quyidagi nominatsiyalar bo'yicha ham taqdirlandi:

"Eng yaxshi mergan" – Namangan;

"Eng kuchli sportchi" – Qoraqalpog'iston Respublikasi, **"Amir Temur tuzuklari bilimdoni"** – Jizzax; **"Vatan tayanchi yulduzi"** – Buxoro viloyati.

Bir so'z bilan aytganda, musobaqada betinim sa'y-harakatlar, izlanishlar va eng muhimi, qalbida Vatanga bo'lgan jo'shqin muhabbati bor yoshlarga g'alaba qozona oladi va bu tanlovning doimiy shiori bo'lib qoladi.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"



VATANPARVAR KURASHCHI



Xalqimizning mard o'g'loni Jaloliddin Manguberding on Vatanini himoya qilishda jonini fido qilib ko'rsatgan jasorati tarix zarvaraqlarida muhrlanib, xalqimizning qalbida mangu yashab kelmoqda.

Ammo bu vatanparvarlik harakatlari doimo past-balandliklardan iborat ekani ma'lum. Shunday harbiy harakatlardan birida fitna uyasiga aylangan poytaxtdagi saroydan ketgan Jaloliddin Niso ostonasida 300 dan ortiq qo'shini bilan uning yo'lini to'sib turgan 700 dan ortiq mo'g'ul qo'shinini yengadi. G'aznaga kelib, yangi kuch to'play boshlab, mo'g'ullar ustidan bir necha bor zafar quchadi. Qandahor shahrini qamal qilayotgan mo'g'ullarni shiddatli janglardan so'ng tor-mor qiladi. G'aznada uning qo'shiniga har tomondan harbiy kuchlar qo'shila boshlaydi. Shundan so'ng sarkarda Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlarini ham yakson qilgach, bu g'alaba xabari Chingizxonga yetib boradi va bundan bezovtalangan xon o'zining eng mohir sarkardasi Shiki Xutuxu no'yon boshchiligidagi 45 ming kishilik qo'shinini Jaloliddinga qarshi yuboradi.

Ikki yirik qo'shin Afg'onistonning Parvona dashti yaqinida to'qnashadi. Ushbu jangda Sulton Jaloliddin o'zining harbiy mahoratini yana bir bor namoyon etadi. Jang shafqatsiz, beomon bo'ladi. **Jangda**

Jaloliddin qo'shini kuchli va makkor mo'g'ul qo'shinini tor-mor qiladi. Parvonadagi bu jang mo'g'ullarning birinchi katta mag'lubiyati edi. Shunday qilib Chingizxon raqibining o'ziga munosib ekanini his etadi va u qat'iy, hal qiluvchi yirik jangga hozirlik ko'rishning vaqti kelganini sezadi.

Niso viloyatidagi qal'alardan birining sohibi mashhur tarixchi Shahobiddin an-Nasaviy 1224-yildan 1231-yilgacha, ya'ni Jaloliddinning vafotigacha uning eng ishonchli mulozimlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. U doimo Jaloliddinning yonida bo'lgan va ko'rgan-bilganlarini yozib borgan. Uning yozishicha, **bu ikki yirik sarkarda qo'shinlari o'rtasidagi hayot-mamot uchun bo'lgan tarixiy uch kunlik jang 1221-yil 25-noyabr kuni boshlanadi.** Tarixchi Juvayniy esa bu voqeani shunday ta'riflaydi: "Shu kuni tongda Sulton Jaloliddin suv va olov o'rtasida qoldi. Bir tarafda oqayotgan Sind daryosi, orqada esa mo'g'ul lashkari. Shunday murakkab sharoitda Sulton o'zini yo'qotmadi va dushman bilan olishuv yo'lini tanladi". **Bu tengsiz jangda**

Jaloliddin bor shijoat, mahorat va quvvatini ko'rsatib, mo'g'ul lashkarlarini lol qoldiradi. Lekin Chingizxon qo'shini soat sayin ko'payib borardi. Oxirgi marta katta urinish bilan qo'shinini biroz chekinishga majbur qilib, jilovni orqaga burgan Jaloliddin sovutini yechib, otga qamchi uradi. Qirg'oqdan turib 10 gaz yoki undan ortiqroq baland masofadan daryoga sakraydi. Dovyurak arslon misoli daryoni kechib, narigi sohilga chiqadi. Chingizxon bu holatni ko'rib, otini daryo qirg'og'iga choptirib keladi va o'g'illariga yuzlanib: **"Mardotaning o'g'li shunday bo'lmog'i lozim! Suv va olovning ikki girdobidan qutulib, najot sohiliga yetdimi, undan beaded ishlar va behisob tahlakalar tug'ilajak"**, deydi.

Sind daryosidan kechib o'tgach, Jaloliddin omon qolgan jangchilarini to'plab, Shimoliy Hindiston hududidagi bir qancha davlat hukmdorlari bilan munosabat o'rnatishga harakat qilishni diliga tugib qo'yadi. Lekin juda holdan toygan, kam sonli qo'shin Jaloliddin boshchiligida hali o'ziga kelishga ulgurmay, hind rojalaridan biri, Shatra viloyati podshosi qo'shinining og'ir ahvolidan foydalanib, ularga ming otliq va 5 ming piyoda askarlari bilan hujum qiladi. Jaloliddin Tangriga tavakkal qilib, qo'shinini jon-jahdi bilan urushga otlantiradi va benihoya jasorat tufayligina hind qo'shinini tor-mor qiladi. Jaloliddin o'z qo'shini ahvolini ancha yaxshilab, asta-sekin ular sonini ko'paytirib boradi.

1227-yili Chingizxon vafot etishi munosabati bilan chingiziylar biroz muddat o'z ichki ishlari bilan ovora bo'lib qoladi. Ularning ayrimlari esa hatto bundan buyon Jaloliddin bilan yaxshi munosabatda bo'lishga ham harakat qiladi.

1227-yil 5-sentabrda Isfahon yaqinida Jaloliddin qo'shinlari bilan mo'g'ullar o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Unda ukasi G'iyosiddin Pirshoh ham akasi tomonida turib jangda qatnashadi. Lekin jangning hal qiluvchi paytida qo'shinning o'ng qanotida turib urushayotgan Pirshoh Jaloliddinga xiyonat qilib, o'z qo'shini bilan jang maydonini tashlab ketadi. Shunga qaramay Jaloliddin g'alaba qozongan bo'lsa-da, ukasining xiyonati unga berilgan katta ichki zarba edi. Bunday holatlar esa Jaloliddin qo'shinida tez-tez ro'y berib turardi. Shuning uchun u ba'zan o'zining yaqin kishilariga ham ishona olmasdi.

1229-yili Jaloliddin Hilot qal'asini qamal qilayotgan paytda singlisi Xonsultondan bir noma oladi. Singlisi nomada Jaloliddinga, uning qudratidan, mol-mulkidan, imkoniyatlaridan xoqonning xabari borligini, xoqon u bilan chegara masalalarida kelishib olib, tinchtotuv yashashga ahd qilganini bildiradi. Shuningdek, agar mo'g'ullarga qarshi turishga kuchi yetsa, ularga qarshi kurashib, o'ch olishi yoki ular sulh istab turganda, ular bilan yarashishni maslahat beradi. Lekin Jaloliddin singlisining bu xatini javobsiz qoldiradi va Xorazmshohlar davlatini qayta

tiklash mumkin bo'lgan ushbu imkoniyatga e'tiborsizlik bilan qaraydi.

Xuddi shu vaqtda Kichik Osiyodagi Ani viloyatining Ko'nyo sultoni Oloviddin Qayqubod o'z ixtiyori bilan Jaloliddinga kelib qo'shilgan bo'lsa-da, Jaloliddinning ba'zi xatolari tufayli ular o'rtasiga sovuqchilik tushadi. Qayqubod Jaloliddinga qarshi fitna tayyorlaydi. Ushbu fitnaga Qayqubod Shorn, Shimoliy Mesopotamiya kabi davlatlar, qator shahar hukmdorlarini ham jalb etish orqali erishadi. Lekin Jaloliddin bu harakatlarga unchalik e'tibor qilmaydi. Aynan shu davrda uning fe'l-atvorida qandaydir tushunib bo'lmaydigan loqaydlik, mo'g'ul qo'shinlariga qarshi harakatda sustkashlik holatlari ro'y berayotgan edi.

Jaloliddinning mo'g'ullarga bas keladigan qo'shini, ming afsuski, endi yo'q edi. Shuning uchun yordam so'rab barcha qo'shni musulmon hukmdorlarga murojaat qiladi. Baxtga qarshi bunday vaziyatda qo'shni mamlakat hukmdorlari ham yordam qo'lini cho'zmaydi va oqibatda u yolg'iz bo'lib qoladi.

Shuncha yillar suronli, tengsiz janglarda beqiyos jasorat ko'rsatib, ulardan omon chiqqan tengi yo'q bahodir Jaloliddinning hayot yo'li shu tariqa tugaydi. Bu voqea 1231-yil 17-20-avgust o'rtalarida sodir bo'lgan edi.

Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar saltanatini qayta tiklash va uning kushandasi bo'lgan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash yo'lida faol harakat qildi. Lekin, ming afsuski, o'sha davr feodal jamiyatiga xos ichki ziddiyatlar, tashqi siyosatdagi ma'lum xatoliklar uning maqsadlari amalga oshishiga to'sqinlik qildi.

Jaloliddin yurt ozodligi yo'lida jon fido etdi, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ularga qaqshatqich zarbalar berib, mo'g'ul hukmdorlariga tahlika soldi, ularga qarshi mardonavor tura oldi. Uning nomi tarix zarvaraqlarida hamisha jasur sarkarda sifatida qayd etilishi Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatiga berilgan haqiqiy bahodir. U og'ir, eng murakkab sharoitlarda ham qat'iy tura oluvchi, qiyin sinovlardan qo'rqmaydigan betakror fazilat egasi, o'z davrining buyuk sarkardalaridan edi.

Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi o'sha davrda mo'g'ullarga qarshi kurashgan musulmonlarning suyangan tog'i edi. Biroq uning davlati musulmon hukmdorlar o'rtasidagi ichki ziddiyatlar tufayli zavol topdi. Uning bemahal halokati tufayli esa islom dunyosi boshiga mo'g'ul bosqinchilari tomonidan yangidan yangi kulfatlar yog'ildi. Jaloliddin janglarda goh zafar quchdi, goh esa mag'lubiyat alamini tottdi. Biroq nima bo'lganda ham, kuchli dushman oldida bosh egmadi.

**Podpolkovnik B. SHERMATOV,
podpolkovnik R. RAJABOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o'qituvchilari**

O'ZLIKNI ANGLASH SURURI

XX asrning boshida Turkiston o'lkasidagi o'zgarishlar tezligini qaysidir ma'noda bugungi taraqqiyot tezligiga o'xshatish mumkin. Chunki o'sha vaqtda jadidlar nomi bilan millat tarixida o'chmas iz qoldirgan bir avlod shakllangan ediki, ularning ilmi, mamlakat, millat ravnaqi yo'lidagi harakati, fidoyiligi nafaqat bugungi yoshlar, balki kelajak avlod uchun eng a'lo namuna bo'ldi.

Qisqa davr ichida millat tafakkuridagi ulkan o'zgarishlar, o'sha davr yoshlari erishgan muvaffaqiyatlar, hatto xotin-qizlar kamoli borasida ilk bora 1990-yilda ToshDU O'zbek filologiyasi fakultetida ustoz Umarali Normatov jo'shib, kuyib-yonib ma'lumot bergan. Bundan juda ta'sirlanganmiz. Chunki 1920-yillardayoq o'zbek qizlarining Germaniya, Turkiyada o'qishini biz yoshlar tasavvur qilolmasdik. Ustozimizning ma'ruzalari Sovet Ittifoqi tarbiyasini olgan biz, yoshlarni uyg'otishga, millatning buyuk farzandlari tarixini bilishga, ulardan o'rnak olishga qilgan fidoyiliklari barobarida ayancli xotimasi o'laroq tarix haqiqatini to'g'ri anglashimizga sababchi bo'lgan.

An'anaviy o'rganib kelingan sovet adabiyoti fani yangilangan dasturini o'rganish aynan bizning talabaligimizdan boshlanganligi katta yutug'imiz bo'lgan. U vaqtlarda maktab darsliklarida avvallari umuman uchramagan Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, Usmon Nosirning nodir asarlari, ularning millat adabiyoti,

ma'rifati yuksalishi uchun qilgan sa'y-harakatlarini o'rganish juda qiziqarli, ammo manbalar kam edi. Ming mashaqqat bilan ilk bora Alisher Navoiy nomidagi davlat kutubxonasida "Oyina", "Sadoyi Turkiston", "Samarqand", "Sadoyi Farg'ona" gazetalarini ko'rganimizdagi hayajonim o'ttiz yildan o'tibdik, hali esimdan chiqmaydi. Eski arab yozuvidagi maqolalarni o'qir ekanman, o'sha davr nafasini his qilganman. Shu bilan birga asr boshida ilm-fan, madaniyat, ma'rifatdagi yutuqlarimizni o'qib, bizga doim singdirib kelingan "O'lkadagi savodsizlik, qoloqlikdan qutqargan partiya-hukumatimiz..." tarbiyasi qanchalar tuban bo'lib, u millat fidoyilarining qoni bilan sug'orilganligini anglaganmiz.

Shundan so'ng jadidlar harakati, faoliyatini o'rganishga qiziqishim oshdi. Universitetning bitiruv-malakaviy ishi uchun "Tavallo va uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi" mavzusini tavsiya qilgan ilmiy rahbarim - mustaqillikning ilk kunlaridan birinchi bo'lib jadidlar harakati,

adabiyotini o'rgangan fidoyi olim, professor Begali Qosimov ish og'ir bo'lishini ta'kidlagan. Shu bilan birga bu ishim bir vaqtning o'zida jadid bobolarimiz xotirasini tiklash uchun juda muhimligini uqtirganlar. Bundan cheksiz quvonanim yodimda.

Ma'lumki, jadid adabiyoti, ma'rifatida o'z o'rniga ega bo'lgan Tavallo ijodiy merosini o'rganishim uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan "Ravnaq ul-islom" kitobida jamlangan fotosurat shaklidagi she'rlarigina manba edi. Uch oy ushbu institutda o'tirib, manbalarni arab yozuvidan kirill yozuviga o'girganman. Xullas, o'zbek adabiyotshunosligida ilk jadidshunoslik maktabini yaratgan olim Begali Qosimov rahbarligida, Umarali Normatov, Shuhrat Rizayevning ilmiy maslahatlariga tayanib, birinchilardan bo'lib jadidlar faoliyati bo'yicha bitiruv-malakaviy ishini yozganmiz.

Men nimadan quvonaman, bilasizmi? Menga qaysidir ma'noda jadidlar harakatini o'rganish jarayoni boshlanishida mening ham ulushim borligidan cheksiz shod bo'laman. Bu menga hamisha g'urur beradi.

Dilnavoz XOLIQOVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
dotsenti

Men harbiy bo'laman!

MA'NAVIYAT — YENGILMAS KUCH!

Bugun yoshlarimizning ma'naviy olamini boyitish, ularni milliy qadriyat va an'analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ertamiz bunyodkorlariga xos bo'lgan yuksak madaniy-axloqiy mezonlar asosida kamolga yetishlariga erishish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.


Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari uchun munosib kadrlarni tayyorlashda o'z hissasini qo'shib kelayotgan Termiz shahridagi "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyida o'quvchi-yoshlar uchun ko'plab ma'naviy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlari ishtirokida tashkil etildi. Markazning bo'lim boshlig'i R. Shaymardanov, Surxondaryo viloyati ma'naviyat va ma'rifat bo'limi rahbari N. Rahmatullayeva hamda bosh mutaxassisi F. Menglijev qatnashgan ushbu tadbir "Men harbiy bo'laman!" mavzusida bo'lib o'tdi.

Suhbat davomida R. Shaymardanov yoshlarga "Unutilmas yorqin yulduzlar" kitobining yaratilish tarixi, unda nomlari qayd etilgan qahramon chegarachilarning faoliyati xususida birma-bir so'zlab berdi. Ayniqsa, kitobni nashrga tayyorlash jarayonlari, qahramonlarning yaqinlari bilan o'tkazilgan suhbatlar va ma'lumotlarni yig'ishda amalga oshirilgan ishlar o'quvchilarning katta qiziqishlariga sabab bo'ldi.

Shuningdek, Vatan himoyachilarining mashaqqatli va shu bilan birga sharaffli kasb faoliyatini yoritib beruvchi "Mard o'g'lonlar nomi barhayot" kitobi xususida so'z yuritilib, ushbu kitobdan joy olgan jasur o'g'lonlarning xotirasi qablarda mangu yashashi ta'kidlandi.

– Yoshlarimiz yurt tinchligi yo'lida o'z jonini qurbon qilgan mardlar va ularning shonli hayot yo'li haqida bilishi kerak. Chunki bu yorug' kunlarga yetib kelishning o'zi bo'lmagan. Qahramonlar jasoratini o'rganish va ularni yod etish orqali bugunning qadriga yetish mumkin. Suhbatimiz davomida o'quvchilarga ana shu haqiqatni tushuntirishga



harakat qildik. Yana bir narsani ta'kidlamochim, litseyga kelib, bu yerda ertamiz egalari uchun yaratilgan shart-sharoitlarga shaxsan yovoh bo'ldik. Ochig'i, juda havasim keldi. Yoshlarimiz bu qulayliklardan unumli foydalanishlarini xohlayman, – deydi R. Shaymardanov.

Tadbir davomida namoyish etilgan yozuvchi Javlon Jovliyevning shu nomli kitobi asosida rejissyor Erkin Bozorov tomonidan tasvirga olingan "Qo'rqma" hujjatli filmi ham yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Savol-javoblarda faol qatnashib, o'z fikr-mulohazalarini bayon etgan bir guruh

ishtirokchilarga Surxondaryo viloyati ma'naviyat va ma'rifat bo'limi tomonidan 15 turdagi kitoblar taqdim etildi.

Shu kuni mehmonlar "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyi ustoz-murabbiylari hamda o'quvchi-yoshlari ishtirokida o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra, ma'naviy-ma'rifiy ishlar holatini tahlil etish orqali mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligini yanada oshirish borasida o'z taklif va tavsiyalarini berdi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

BOSHQARUV

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk kunlaridanoq jamiyatimizning barcha sohalarida tub o'zgarish va yangiliklar amalga oshirilib, buyuk va mehnatkash xalqimizning turmush darajasi yuksalib, barcha fuqarolarimizning qonun bilan muhofaza qilingan huquq va erkinliklari ta'minlanmoqda.

PSIXOLOGIIYASI



Bugun zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda jamiyatimizga nafaqat yuqori malakali, balki boshqaruv qobiliyatiga ega kadrlar bo'lishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha vazirlik va idoralarning rahbariy tarkibi bilan o'tkazilgan yig'ilishda rahbarlar faoliyatiga alohida to'xtalib, **"Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz, birinchi navbatda, kim bilan muloqot qilishimiz kerak – odamlarimiz bilan..."** deya ta'kidladi.

Bizga ma'lumki, aql va ilm tantanasi, ma'naviy ozodlik, inson takomili, adolatli jamiyat uchun kurashgan olim, faylasuf, dunyoning buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy o'zining ko'p qirrali ijodi bilan inson bilimlari rivojiga ulkan hissa qo'shdi, jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Forobiyning o'rta asr ilg'or fikri taraqqiyotidagi o'rni va rolini ta'riflaganda, avvalo, uning qadimgi yunon olimlari asarlarini tarjima qilgani va ularga yozgan sharhlarining ahamiyatini ko'rsatib o'tish lozim.

Forobiyning bu faoliyati faqat ma'rifatchilik maqsadlarini ko'zlab qolmasdan, balki hukmron musulmon teologiyasining aqidalaridan farqli bo'lgan tabiiy-ilmiy va sof falsafiy bilimlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Aristotelning ilmiy qarashlarini, yunon donishmandligini chuqur bilgani, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgani uchun Forobiy "al-Muallim as-soniy" degan unvon oldi.

Agar mazkur buyuk faylasufning "Fozil odamlar shahri" nomli kitobiga nazar tashlasak, Abu Nasr Forobiy o'zining ko'p qirrali ijodi davomida bir necha asrlar avval odamlarni boshqarish masalalariga alohida to'xtalib o'tganiga guvoh bo'lamiz.

Xususan, o'z faoliyati davrida ham, bu faoliyatdan o'zini tortganda ham sardor (*boshliq, rahbar*) o'z nomi bilan sardor deb atalishi zarur, agar u boshqalarni bu san'atga o'rgatgandan so'ng o'z faoliyatidan voz kechsa ham, u rahbar deb atalishga haqlidir.

Agar rahbarning faoliyati maqtovg'a sazovor bo'lmasa va bu ish uning qo'lidan kelmasa, u holda boshliq deb atalishga loyiq emas.

Sohibi qonun (*vazifa va topshiriqlar beruvchi*) birinchidan, qonunlarni joriy qila olishi, ikkinchidan, farmon (*buyruq, ko'rsatma, vazifa, topshiriq va h.k.*) berishni bilishi zarur, deydi alloma. Agar u o'zi

buyurgan narsani joriy etolmasa, agar boshqalar bo'ysungan narsaga o'zi amal qilmasa, u holda uning ko'rsatmalari qonuniy kuchga ega bo'lmaydi va uning so'zlari qo'l ostidagilarga ta'sir etmaydi. Qonunlarga rioya qilishda tarbiya va mashg'ulotlar (*bilimlar*) katta ahamiyatga ega. Sohibi qonun tomonidan og'ir ishlar va mashaqqatli mehnat bilan bog'liq bo'lmagan matonat talab qilinishi eng yaxshi adolatdir, chunki uning pirovardida qulaylik va xayrli ishlar keladi, bu holat xuddi achchiq, ammo sog'liqqa yaxshi ta'sir etuvchi dori ichishga o'xshaydi, deb ta'kidlab o'tgan.

Bugungi o'ta murakkab bir davrda har bir davlat o'zining buyuk kelajagini qurish uchun, avvalo, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash kabi ustuvor va strategik masalani oliy ta'lim muassasalarini isloh etishdan boshlashni vazifa qilib olgan. Hayot shiddatidan orqada qolmaslik uchun asosiy e'tiborni rahbarlarni tayyorlash bilan bir davrda, insonlarni psixologik boshqarish masalasiga ham alohida e'tibor qaratish talab etilmoqda. Mazkur muammolarni hal etish borasida har bir sog'lom jamiyatda ko'plab mutaxassislar chuqur izlanishlar olib bormoqda.

Boshqaruv psixologiyasining e'tibor markazida inson psixologiyasining mohiyatini bilish, xodimlarning o'zaro hamkorligini rag'batlantirish, boshqaruv faoliyatini psixologik jihatdan har tomonlama hisobga olish, jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni tashkil etish va boshqa muammolar turadi.

Tadqiqotchilar bo'ysunuvchilarni 3 turga bo'lishadi:

1. **Qaysar bo'ysunuvchi:** xodim bo'ysunish masalasini majburiy jarayon deb qabul qiladi. Uning uchun bo'ysunish va burch tushunchalari o'ta sezilarli past tushunchalar hisoblanadi.

2. **Ko'ngilchan bo'ysunuvchi:** ishchi o'zining sharoitidan umumiy holatda qoniqadi. Mazkur yondashuv undan muhim qarorlar qabul qilishdan ozod etib, "boshliqning o'zi o'ylasin" qabilida ish tutadi.

3. **Tashabbuskor bo'ysunuvchi:** ishchi bo'ysunishni ongli ravishda qabul qiladi, burch mas'uliyati uning odatiga aylangan, biroq tashabbuskorlik so'nmaydi. Bunday bo'ysunuvchi tiplarda boshqaruvchining tanqidiy bahosi va uning rahbarligini tan olish yotadi.

Yurtboshimizning rahbarlar faoliyatiga to'xtalib, **"barcha pog'onadagi rahbarlar o'zlarining faoliyatlarida o'zlari namuna bo'lmasa, ular o'zlarining ortidan odamlarni ergashtira olmaydilar"**, degan sermazmun fikrlari bugun o'z isbotini ko'rsatmoqda. O'z mas'uliyatini unutib, oyog'i yerdan uzilgan, men rahbarman, nima qilsam ham, meniki to'g'ri, deb yurganlar ham yo'q emasligi, ming afsuski, ayrim rahbarlar o'zlariga berilgan vakolatni suiiste'mol qilib, qo'l

ostidagi xodimlarga qo'pol munosabatda bo'layotgani, haqorat qilib, hatto qo'l ko'tarayotgani, ular o'zlarining shu kabi salbiy illatlari bilan odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat muhitini buzishga sabab bo'layotgani, bunday nomaqbul xatti-harakat esa jamiyatimizda birdamlik, o'zaro odamiylikni yo'qolib ketishiga sabab bo'layotganining guvohi bo'ldik. Agar rahbarning o'zi shunday nojo'ya ishlarga qo'l ursa, boshqa xodimlar, ayniqsa katta umidlar bilan hayotga kirib kelayotgan beg'ubor yoshlarimiz ulardan nimani o'rganishini jon kuydirib ta'kidlab o'tganlar.

Buyuk mutafakkir, she'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiy bobomiz bunday rahbarlar haqida **"mansab mastligi may mastligidan farq qiladi. May mastligi faqat ichgan kuni ta'sir ko'rsatadi. Mansab mastligi esa yillar mobaynida, ya'ni mansabdandan ayrilguncha davom etadi"**, deb bir necha asrlar avval aytganlar.

Haqiqatan ham, bizning ulug' va mehnatkash xalqimiz hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, **"Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berib, og'irini yengil qilish uchun rahbar etib tayinlangan"**.

Asrlar davomida Sharq mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy qarashlar aks ettirilgan, shaxslararo munosabatlar xususida fikr bildirilgan, podshohlarni odil siyosat yuritishga undovchi, davlatni boshqarish, harbiy ilmning qoidalariga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratilgan.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur bizga meros qilib qoldirgan "Temur tuzuklari"ni o'qisak, o'zimizga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat olgandek bo'lamiz. Bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o'y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba'zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug'orilgan bu asarda qanday teran ma'no mujassam ekanini anglab yetamiz.

Agar har bir rahbar o'z faoliyati davomida ushbu kitobga murojaat qilsa, undagi hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlarining qanchalik to'g'ri ekaniga yana bir bor guvoh bo'ladi. Boshqaruv borasida bildirilgan, **"Saltanatni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishi to'ra va tuzuk asosida bajardim"** (*bu yerda "to'ra va tuzuk" qonun-qoida ma'nosida ishlatilgan*) singari fikrlari bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekani barchamizga ayondir. "Temur tuzuklari"da rahbarlarning nuqsonlari to'g'risida quyidagicha fikr yuritilgan: **"Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytga, yudurma gaplarga quloq solsa, jabr, zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim"**.

Shunday ekan, har bir rahbar va mansabdor shaxs egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, o'z faoliyatiga tanqidiy baho berib, o'ziga yuklatilgan vazifa hamda majburiyatlariga vijdonan yondashishi, faqat va faqat xalq hamda jamiyat manfaatida ish ko'rishi, davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganlaridek, **"Men kelgusida xizmatni davom ettirishga munosibmanmi yoki yo'qmi?"** degan savolga javob berishi shart.

Marziya QARSHIYEVA
Belarus-O'zbekiston qo'shma
tarmoqlararo amaliy texnik
kvalifikatsiyalar instituti

JAMIYAT TARAQQIYOTINING BAROMETRI

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishga jiddiy e'tibor qaratilib, ayolga munosabat, hurmat hamda ehtirom sharqona axloq va odobga, umrboqiy qadriyatlarga, uning haq-huquqlarini himoya qilish esa milliy qonun hujjatlarimiz hamda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga asoslangan.



Yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyasiga hamda uning hayotidagi o'rmini yanada mustahkamlashga, mehnat qilish, salomatligini tiklash, ilm olish, kasb-hunar o'rganish va ijtimoiy-siyosiy sohalarda erkaklar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur huquqiy bazani mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, buni nafaqat milliy qonunchiligimizni yanada takomillashtirib borishda, balki xalqaro hujjatlarda umume'tirof etilgan xotin-qizlar va erkaklar tengligi to'g'risidagi bir qator huquqiy normalarning yangi qonunlarimizga implementatsiya qilinayotganida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Bu borada xotin-qizlarimiz ilm-fan va ta'lim, xususan oliy ta'lim sohasida katta natijalarga erishmoqda.

Raqamlarga murojaat qilsak, joriy o'quv yilida:

– ehtiyojmand oilalarga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliygohlarga qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi;

– 181 ming 500 nafardan ortiq qiz uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi;

– ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so'm kontrakt puli mahalliy byudjetlar hisobidan qoplab berildi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz xotin-qizlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan barcha qonun hujjatlarining xalqaro me'yor va huquqiy standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti, Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi, Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi, Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya va uni to'ldiruvchi Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish bo'yicha protokol va o'nlab boshqa xalqaro konvensiyalarga qo'shildi.

Mamlakatimizdagi xotin-qizlarimiz nafaqat siyosiy jarayonlarda faol ishtirokchi, balki jamiyatdagi ta'lim, sog'liqni saqlash, mahalla faoliyatini ayollarsiz tasavvur etib bo'lmaydigan darajaga ko'tarildi. Shuningdek, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarida ayollarning soni sezilarli darajada o'sgani bunga yaqqol misol bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat, Oila kodekslari va qabul qilingan boshqa qonun hujjatlarida, ayniqsa BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 28-apreldagi rezolyutsiyasiga asosan, 10-mart – Xalqaro ayol sudyalari kuni, deb e'lon qilingan.

Ayollar huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlar har bir davlatga o'z hududida erkak va ayollarning real, haqiqiy tengligini ta'minlashga hamda ayollarni kamsitishning har qanday shakllarini bartaraf etishga qaratilgan yuksak majburiyatni yuklaydi. Ushbu xalqaro hujjatlarda e'tirof etilgan xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi to'g'risidagi huquqiy normalarning Konstitutsiyamizga va amaldagi boshqa qonun hujjatlariga kiritilganini alohida ta'kidlash lozim.

Aynan shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasi yanada rivojlantirilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida qayd etilgan, insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyat barpo etish mas'uliyati aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi" deb nomlangan nutqida joriy yilda mamlakatimizda xotin-qizlarimiz muammolarini hal etish bo'yicha yangi imkoniyatlar ochib berish maqsadida bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi:

Avvalo, milliy qonunchiligimiz takomillashtirilib, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilishi joizligi qayd etildi. Buning tasdig'i sifatida Saylov kodeksida deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo'lishi zarurligi mustahkamlab qo'yildi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida xotin-qizlarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularning bandligini ta'minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish vazifalari alohida belgilab qo'yildi.

Mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko'tarish, ularning



bandligiga ko'maklashish maqsadida Senat raisi boshchiligidagi maxsus komissiya tashkil etilishi va bu komissiya kelgusi yil 8-martga qadar har bir hududda xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangicha yondashuvlar va tizim asosida tashkil qilishi ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Shuningdek, viloyat, tuman, shahar hokimlari hokimlarning xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari hamda faol ayollar komissiyasi bilan birgalikda joriy yilda 9 ming 442 ta mahalladagi 580 ming nafarga yaqin ishsiz ayolning bandligini ta'minlash uchun mas'ul etib belgilandi.

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan 8 ming nafar xotin-qizga o'z biznesini boshlashi va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun subsidiya, 10 ming nafariga esa imtiyozli kreditlar ajratilishi, bundan tashqari, 50 ming nafar yosh ayol uchun malakali

mutaxassislar ishtirokida "Biznes marafon" loyihasini tashkil etish vazifasi belgilandi.

Sog'liqni saqlash sohasida murakkab jarrohlik operatsiyasi o'tkazishga muhtoj 2 ming nafar xotin-qiz davlat byudjeti va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan davolanishi, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 3 ming nafar ayol uchun murakkab tibbiy operatsiyalar bepul o'tkazilishi, 1 million nafar homilador ayol hamda 1 million 500 ming nafar emizikli ona yod preparati, qariyb 6 million nafar reproduktiv yoshdagi ayol temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlanishi belgilandi.

Bir so'z bilan aytganda, qabul qilinayotgan qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining o'nlab muhim qarorlarida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, shu bilan bir qatorda, ayollarning onalik burchi hamda oiladagi bosh tarbiyachilik vazifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi unda yashayotgan aholining, avvalo, ayolning, onaning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy komillik darajasi bilan o'lchanadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini pirovard natijada ayollarning ijtimoiy hayotidagi, shuningdek oila va jamiyatdagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasizdir.

Umida YULDASHBEKOVA,
O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi eksperti

Inson qadri uchun

IJTIMOY HIMOYA YO'LIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrda tegishli farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, "Inson qadri uchun" tamoyili bosh mezon etib belgilanib, shu asosda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada olib borilgan o'rganishlar davomida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning bolaligidan nogironligi, tug'ma yurak nuqsoni va boshqa og'ir kasalliklari bois davolanishga muhtoj bo'lgan farzandlarining umumiy ro'yxati shakllantirildi.

Harbiy prokuratura tashabbusi bilan Bolalar milliy tibbiyot markazi hamkorligida ishlab chiqilgan reja-grafik asosida respublika bo'ylab harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun chuqurlashtirilgan bepul tibbiy tekshiruvlar tashkil etilmoqda. Xususan, hozirga qadar markazning malakali shifokorlari tomonidan zamonaviy tibbiy texnikalar yordamida harbiy

xizmatchilarning **150 nafardan** ortiq farzandi tibbiy tekshiruvlardan o'tkazildi. Ularning **10 nafarga** yaqinida jarrohlik amaliyoti o'tkazildi, **5 nafardan** ortiq bola bu jarayonga tayyorlanmoqda, yana **10 nafari** stasionar davolanishga yotqizilgan bo'lsa, boshqalariga shifokor nazoratida bo'lish va ma'lum muddatdan so'ng qayta tekshiruvdan o'tish kabi boshqa zarur tibbiy tavsiyalar berildi.

Bu kabi xayrli ishlarning 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni arafasidagi tadbirlar bilan uyg'unlashib ketgani ham alohida ramziy ahamiyat kasb etmoqda. Asosiysi, ota-onalar farzandlarining chinakam himoya ostida ekanini yana bir karra his etishmoqda.

Adliya mayori
Qudrat ERGASHEV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi bo'lim
harbiy prokurori

MUAZZAM GO‘SHANING

egalarini



Oila – beqiyos muazzam go‘sha.
Inson undan ortiq baxt qasrini yarata
olmaydi. Ulug‘ olim-u allomalar
ta‘kidlaganidek, baxt formulasining
asosiy bo‘g‘inini oila tashkil etadi.
Shoirona aytganda:

**Oila – mo‘tabar koshona,
Buyuklar ulg‘ayay ostona.
Quchog‘ida yashar baxt, qadr,
Tengi yo‘q dargoh u, yagona.**

Mehr, halovat, qadriyat go‘shasi bo‘lgan oilalarni asrash, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash nafaqat xonadon egalarini, balki jamiyatimiz oldida turgan dolzarb talablardan biridir. Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy oilalar mukammal ijtimoiy himoyaga ega. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning oilalari ishtirokida ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy tadbirlarni tashkillashtirish, yuksak oilaviy fazilatlarini targ‘ib qilish, oila bek-bekalari va farzandlarining yutuqlarini, ulardagi iste‘dod va ijodkorlikni yuzaga chiqarish maqsadida har yili an‘anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan namunali oilalar o‘rtasidagi tanlov ularga qaratilgan e‘tibor namunasidir.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida “Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasiman!” shiori ostida bu yil ham harbiy qism va okruglarda bosqichma-bosqich “Ibratli

harbiy oila” ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi. Tanlovning yakuniy bosqichi 15-may – Xalqaro oila kunida katta tayyorgarliklar bilan amalga oshirildi. Bo‘stonliq tumanida joylashgan Mudofaa vazirligi tasarrufidagi “Tong” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida yuksak saviyada tashkillashtirilgan tadbirda 8 nafar harbiy oila ishtirok etdi. Ikki kun davom etgan “Ibratli harbiy oila” ko‘rik-tanlovida ishtirokchilar 6 ta shart bo‘yicha o‘zaro bellashdi.

Ularning shartlar bo‘yicha har bir chiqishini nufuzli hay‘at a‘zolari: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi ijodkor yoshlar bilan ishlash bo‘limi yetakchi mutaxassisi, shoir Mirzokarim Toshboltayev, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi O‘zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining Toshkent shahar kengashi raisi Odiljon Nastinov, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi harbiy-vatanparvarlik bo‘limi boshlig‘i Maxfirat Zikirova shaffof tarzda baholab borishdi.

Ko‘rik-tanlovning odilona o‘tkazilishi va umumiy baholarni jamlab borish Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi Zulfiya Mansurova tomonidan nazorat qilindi.

Ko‘rik-tanlovning birinchi kuni taassurotlari

Respublikamizning turli hududlaridan yakuniy bosqichda ishtirok etish uchun kelgan oilalar bellashuvning birinchi kunida 4 ta shart bo‘yicha o‘z iqtidorlarini namoyish etishdi. Dastlab harbiy oilalarning o‘g‘il-qizlari “Biz epchil va chaqqonmiz” shartida “darts”, ya‘ni kichik nayzchalarni uch metr dan mo‘ljalga tekkizish musobaqasida epchil va chaqqonliklarini yuzaga chiqarishdi. Bu qiziqarli bellashuvda Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug vakili kichik serjant Jasurbek Toshmatovning farzandlari yuqori natijani qo‘lga kiritdi.

Sport har bir oilaning sevimli mashg‘uloti bo‘lishi shart. Bu nafaqat salomatlik, balki ruhan tetiklik garovidir. Shu sabab tanlov shartidan sport ham o‘rin olgan. Bellashuvda harbiy oila beklari yigitlarning sevimli mashg‘uloti bo‘lgan futbol yo‘nalishida kuch sinashdi. Ya‘ni darvozadan to‘p o‘tkazmaslik borasida ularning epchil va kuchli ekanliklari sinovdan



o'tdi. Harbiy oilalarning go'zal bekalari esa basketbolda – ma'lum masofadan setkaga to'p tushirishda iqtidorlarini namoyish etdi. "Kuch birlikda" shartida Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi vakillari Bobomurod Musayev va III darajali serjant Nargiza Musayeva yetakchilikni qo'ldan berishmadi.

Uchinchi shart – "Mozaika yig'ish". Bu mashg'ulot bilan asosan bolalar shug'ullanadi. Oddiy ko'ringan bu mashg'ulot iqtidor, xotira va bilimdonlikni talab etadi. Ushbu shartning asosiy talabi esa mozaikadan joy olgan turli shakllarni besh daqiqa ichida qayta tiklash. Ya'ni aralashtirib tashlangan shakllar bo'lagini belgilangan fursatda joy-joyiga qo'yish. Bu bellashuvda harbiy oilalarning 4 nafar a'zosi ishtirok etishi mumkin. Hayajonga boy ushbu shartda Shimoli-g'arbiy harbiy okrugdan ishtirok etgan III darajali serjant Dilshod Saydahmetov oilasi belgilangan vaqtdan avval ado etib, olqishlarga sazovor bo'ldi.

Milliy taomlarimiz haqida so'z ketganda, birinchi bo'lib palovxonto'ra tilga olinadi. Milliy qadriyatimizga aylangan bu shohona taomni erkaklarimiz o'zgacha tayyorlashi sir emas. "Osh chempionati" shartida harbiy oila beklari faol bo'lishdi. To'g'rirog'i, bu bellashuvda osh oilaviy tayyorlansa-da, kagpir erkak qo'lida bo'lishi shart.

Yonma-yon o'rnatilgan qator o'choqlarga qozonlar osildi. Bayramlarga xos go'zal manzara. Oilalarning katta-kichigi osh tayyorlashga kirishib ketdi. Sakkizta qozonda turli navdagi guruchlardan turli viloyatlarga xos osh damlandi. Hayajonli daqiqalar yaqin. Negaki hay'at a'zolari tomonidan baholar belgilanadi. Mana, qozonlardagi palovxonto'ra laganlardan joy oldi. Palovlarning barchasi mehr bilan tayyorlanganidan dalolat berib turibdi. Biroq oz farq bilan bo'lsa-da, qaysi bir ishtirokchi tayyorlagan palov yuqori ball oladi.

"Osh chempionati"da Havо hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligidan kichik serjant Mirjahon Rajabov oilasi hamda Janubiy operativ qo'mondonligi vakili kichik serjant Salim Tuxsanov oilasi yetakchi bo'ldi.

"Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovining birinchi kuni ko'tarinki kayfiyatda o'tdi. Kechga tomon gulxan atrofida jam bo'lgan tadbir ishtirokchilari Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli xonandalarining kuy-qo'shiqlaridan bahramand bo'lishdi. Qo'shiqlar raqslarga ulandi.

Ikkinchi kun barchaga a'lo kayfiyat ulashdi

Tog'li hududda havo sofligi o'zgacha. Ayniqsa, tong sahar atrof manzarasi, viqorli tog'lar, sayroqi qushlarning xonishi dilingni yayratadi. Xush kayfiyatda yangi tongni qarshi

olgan "Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovi ishtirokchilari navbatdagi bellashuvlarga bel bog'lashdi.

"Oilam – mening baxtim!" shartida oilaning barcha a'zolari milliy raqs, she'r, qo'shiq, xalq o'yinlari va boshqa ijrochilik san'ati orqali har tomonlama sog'lom, namunali harbiy oilaning jihatlarini va ularning erishgan yutuqlarini namoyish etishlari kerak.

Bellashuvning navbatdagi sharti boshlandi. Davraga birin-ketin chiqib, o'z oilalari haqida ijodkorlik bilan ma'lumot bergan ishtirokchilarning har biri o'ziga xos tayyorgarlikka ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Sharqiy harbiy okrugdan tashrif buyurgan III darajali serjant Ahmadjon Utanov oilasi e'tiroflarga sazovor bo'ldi.

So'nggi "Musiqiy kompozitsiya" shartida harbiy xizmatchi va uning rafiqasi milliy libosda tillardan tillarga o'tib kelayotgan xalq qo'shiq va laparlarini jonli tarzda duet qilib ijro etishlari belgilangan. Ushbu shart bayramona tadbirning go'zal yechimi bo'ldi, desak arziydi. Chunki ishtirokchilar san'at borasidagi iqtidorlarini yuzaga chiqardi. Bu shartni bellashuv ishtirokchilarining barchasi a'lo darajada uddaladi. Ayniqsa, Toshkent harbiy okrugi vakili I darajali serjant Jamshid Ungalov va rafiqasi Feruza Tongotarova hamda Markaziy harbiy okrugdan ishtirok etgan mayor Jo'rabek Nazarov va rafiqasi Dilrabo Gulyamova alohida olqishlarga sazovor bo'ldi.

Ikki kun davom etgan "Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovi qatnashchilar hayotida katta iz qoldirdi. Tanlovda ishtirok etgan o'g'il-qizlar harbiy oila farzandi ekanligidan dillarida g'urur tuyganiga shubha yo'q.

"Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovida faxrli 1-o'rin Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug vakili kichik serjant Jasurbek Toshmatov oilasiga nasib etdi.



2-o'rinni Markaziy harbiy okrugdan mayor Jo'rabek Nazarov oilasi egalladi. 3-o'ringa esa Janubiy operativ qo'mondonlik vakili kichik

serjant Salim Tuxsanov oilasi munosib topildi.

Ishtirokchilarga Mudofaa vazirligi hamda hamkor tashkilotlar tomonidan

taqdim etilgan qimmatbaho sovg'alarni Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Hasan

Xalilov tantanali ravishda topshirdi.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Nurafshon opa apil-tapil nonushta qilib, maktabga ketayotgan o'g'li Diyorbekning ortidan mahzun termilib qoldi. "Durkun o'sib kelayotgan bolam dadasidan keyin cho'kib qoldi. Otadan ayrilish yomon ta'sir qildi unga", xo'rsindi ayol. – Bolalarim erta yetim bo'ldi. Uch o'g'ilni o'ksitmay, qanday oyoqqa qo'yarkanman", – ko'zlaridan beixtiyor yosh quyildi.

– Aya, nonushtaga yegani hech narsa yo'q-ku, – xayolini bo'ldi kenjatoyi Mansurbek. – Holvaytar qilmadingizmi?
– Shakar qolmabdi, o'g'lim. Yog' ham kechqurungi ovqatga yetadi. Qutini ochsang, yong'oq bor, o'shandan uch-to'rtta olgin, non bilan qo'shib yeysan!
– Yong'oqqa tegmanglar, mehmonlarga olib qo'yanman, degandingiz-ku?

– Mehmon kelsa, bir gap bo'lar, Diyorbekka ham aytmabman-da, quruq non-choy ichib ketdi. O'g'lim, akang Jasurbekni ham uyg'ot, tez-tez choylaringni ichib, dasturxonni yig'ishtirib qo'yinglar! Chala qolgan darslaring bo'lsa bajarib, maktabdan kech qolmanglar! Men ishga chiqib ketyapman, kechga tomon do'kondan u-bu narsa olib kelaman.

– Diyorbek akam mardikorlikka chiqmang, degandi-ku, yana chiqasizmi? Akamning o'rtoqlari onang maddi (mardikor) deb masxara qilargan ekan.

– Tirikchilik toshdan qattiq, beaql bolalar bizning sharoitimizni qayerdan bilardi?! Akang buni tushunishi kerak, – mahzun tortdi Nurafshon opa. – Sizlar o'qib, kasb-korli bo'lsalaring, keyin uyda o'tiraman!..

Kechga tomon Nurafshon opa qo'lida bozorliklar bilan kirib kelganida, Diyorbek ayvonda dars qilib o'tirardi. Onasini ko'rgan zahoti unga peshvoz chiqdi.

– Aya, og'ir narsa ko'tarmang, degandim-ku! Shu bozorni men chiqib, qilib kelardim.

– Do'kon yo'limning ustida, biryola ro'zg'ordagi kamlarni ola qoldim.

– O'qishdan, hovlidagi tomorqadan ortib, sizga yordam berolmayapman, ayajon. Kunlik ishdan ko'ra bog'chagami, maktabgami ishga kirsangiz bo'lmaydimi, tozalash ishlarida qo'limdan kelgancha sizga qarashardim.

– Qo'limda diplomim yo'q, bolam, bog'chada enaga bo'lish uchun hech yo'q texnikumni bitirgan bo'lish kerak. Maktabda farroshlar yetarli. Keyin beradigan maoshlari ko'p emas. Shunday paytlari birorta sohaga o'qimaganimga xafa bo'lib ketaman. Nima bo'lgandayam mehnatning uyati yo'q, o'g'lim.

– Mayli-ku, lekin...

– O'rtoqlaringdan uyalyapsan, shundaymi? Ba'zi erka o'sgan bolalar bilib-bilmay ta'na qilaveradi, sen ularga parvo qilma, o'g'lim! Katta bo'lsalaring, hamma qiyinchiliklarimiz ortda qoladi. Faqat yaxshi o'qib, yaxshi kasblarni egallasalaring bo'lgani.

– Albatta, ayajon, maqsadim – ofitser bo'lish. Bizga boshlang'ich harbiy ta'limdan saboq berayotgan o'qituvchimiz G'iyos aka menga yaxshi

maslahatlar berdi. Seni harbiy bilim yurtiga tayyorlayman dedi. Kelajakda, albatta, harbiy uchuvchi bo'laman. Ukalarim o'qiydi. Uch o'g'il sizning xizmattingizda bo'lamiz.

* * *

Maktabning 10-sinf xonasi. Sinf rahbari qarshisida barcha o'quvchilar boshini eggancha jim turibdi, pashsha uchsa bilinadi.

– Sinfimiz Diyorbek Rasulov va Xushro'ya Nosirovaning yutuqlarini hisobga olmaganida, maktabdagi eng qoloq sinflar qatorida turibdi. Uyat, hammalaringga uyat, o'qimay qo'ydinglar! Ertaga darsdan keyin ot-onalar majlisi, hammang otang yoki onang bilan kelasan!

Sinf rahbari chiqib ketgan zahoti sinfning kibrli o'quvchilaridan bo'lgan Abbas Diyorbekdan qitmirlik ila so'radi:

– Diyor, sen ot-onalar majlisiga kimni olib kelasan? Otang o'lgan, onang mardikorlikka chiqib, odamlarning ishini qiladi, kelmasligi aniq.

– Onamga til tekkizma, yana bir marta gapirsang...

– Nima qilasan, urasanmi, kuching yetadimi o'zi menga?

Shu tariqa ikki yigitcha olisha ketdi. Kimdir xabar bergan shekilli, sinf rahbari kirib keldi.

– Hamma ayb senda, – vaziyatni o'rgangan muallim dakki bera ketdi Abbosga. – Davomating ham, o'zlashtirishing ham hamma sinfdoshlaringdan past. Urush kovlaguncha yaxshi o'qisang bo'lmaydimi? Bu turishingda ertaga kim bo'lasan, bilmadim.

– Otamga o'xshab prokuror bo'laman, ustoz, – dimog'dorlik bilan javob qaytardi qilmishidan zarracha afsuslanmagan yigitcha.

– Otangga suyanib prokuror bo'lishing mumkin, ammo bu fe'ling bilan uzoqqa bormaysan. Qitmirlik oxirigisi bo'lsin, yo'qsa chora ko'raman!

Diyorbek maktabdan qaytganda Nurafshon opa o'ranib olgancha ayvondagi so'rida yotardi.

– Ayajon, uyga erta qaytibsizmi, nega o'ranib yotibsiz? – onasi tomon shoshildi yigitcha. – Sog'lig'ingiz yaxshimi?

– Yaxshiman, o'g'lim, xavotir olma! Ishlab turgan joyimda bezgak olib, mazam qochdi, – behol javob qaytardi Nurafshon opa. – Biroz shamolladim, chog'i.

– Dori olib kelaymi, yo doktor Manzura opani chaqiraymi? – shoshib qoldi Diyorbek.

– Dori ichdim, bolam, ancha yaxshiman. Hozir turib ovqat qilaman.

– Kiyimlarimni almashtirib chiqay, o'zim ovqat qilaman. Yotgan joyingizda o'rgatib tursangiz bo'ldi, ayajon, – ichkariga shoshildi Diyorbek.

Uning ko'z oldidan negadir otasi Sodiq aka nari ketmasdi. U bedavo dardga chalinishidan avval onasi kabi holi qurib, tez-tez yotadigan bo'lib qolgandi. Endi xuddi o'sha joyda onasi... Yigitcha ko'zlariga quyilib kelayotgan yoshni artdi, o'zini qo'lga oldi. "Onam yashaydi, uzoq yashaydi", qorong'i xayollarni nari surib, onasi yoniga intildi.

Nurafshon opa ikki-uch kun deganda dori-darmonlar bilan oyoqqa turdi. Toliqqan vujudi biroz dam olib o'ziga kelgan ayol behol bo'lishiga qaramay, yana mardikorlikka chiqishga chog'landi. Bu orada Diyorbek maktab va uy ishlaridan ortib, qo'shni mahalladagi novvoyga shogird tushdi. Oilaning dasturxonini har kuni to'rtta issiq non bilan but bo'la boshladi.

– Ayajon, iltimos, ishga chiqmang! Bizga sog'lig'ingiz kerak, dadamdan ayrilganimiz yetadi, – onasiga yalindi Diyorbek.

– Bolam, to'rt jonmiz, yeb-ichish, kiyim-kechak, maktab xarajatlarini degandek... Bilasan, uydagi bor tuyoqni dadang uchun sarfladik. Oxiratlari obod bo'lsin, baribir peshanamizga sig'madi. Ishlamasam bo'lmaydi, o'g'lim, boshqa imkonimiz yo'q.

– Mana, men novvoyxonada ishlayapman. Har kuni to'rtta non beradi, ishimga qarab pul beradigan ham bo'ldi. Ukalarim katta bo'lib qoldi, ulargayam yoshiga munosib ish topaman. Masalan, Jasur mashina tuzatishga qiziqadi. Qishlog'imizdagi ustaxonaga borib, gaplashib kelaman. Qishloqdagilar sharoitimizni ko'rib turibdi, yo'q deyishmaydi.

– Aslo, – keskin fikr bildirdi Nurafshon opa. – Sizlar yaxshi o'qib, kasb-korli bo'lishlaring kerak! Bu faqat meni emas, dadangning ham orzusi edi. Ishlasalaring o'qishlaring qolib ketadi.

– Va'da beraman, unday bo'lmaydi, ayajon. Ukalarimning o'qishini nazorat

qilaman. Albatta, siz aytgandek, o'qimishli bo'lamiz!

Ona-bolaning tortishuvi qat'iyatli, tinib-tinchimas Diyorbek tomonga hal bo'ldi.

* * *

Oradan uch yil o'tdi.

– Ayajon, suyunchi bering, akam keldi, – hovli tomorqasida ish qilayotgan Nurafshon opaga xabar yetkazdi Mansurbek.

– Diyorbekmi? – onaning ovozi hayajondan qaltirab chiqdi.

Nurafshon opa ko'ylagining etagini qoqib, egatdan chiqqunga qadar Diyorbek onasi oldida hozir bo'ldi.

– Ayajonim, mehnatkashim, dam olmas ekansiz-da! Bu ishlarni endi Mansur qilishi kerak.

Quchoq ochib turgan harbiy libosdagi o'g'lini ko'rib, onaizorning ko'zlariga quvonch yoshlari to'ldi.

– Bo'ylaring yana o'sibdimi, bolam, – gavdali o'g'lining ko'ksiga boshini qo'ydi Nurafshon opa. – Shu kunga yetkazganiga shukur!

– Ikkinchi kursni tugatib, kursant o'g'lingiz ta'tilga keldi, mana. Ta'til tugaguncha xizmattingizdaman.

– Qara, kelishingni bilgandek, oshga zirvak qilib qo'ygandim, hozir damlayman. Ukang Jasurbekdan xabardor bo'lib turibsanmi, o'g'lim?

– Bo'lmasa-chi, sharoitga qarab ustoz bilan bog'lanib turaman. U "Temurbeklar maktabi"ning eng a'lochi o'quvchilaridan. Ta'tilga chiqib qolsa kerak.

– Xayriyat, bag'rim to'lar ekan. Mansurbek ikkimiz yo'llaringga ko'z tikib o'tiramiz.

– O'qishlaring yaxshimi? – ukasining yelkasidan quchdi Diyorbek.

– Yaxshi, a'lochilar safidaman. Kompyuter yo'nalishida saboq o'lyapman. Shu yo'nalishda o'qimoqchiman.

– Zo'r-ku. Eng asosiysi, dilingda qat'iy maqsad bo'lsin, uka!

Nurafshon opa palovni suzar chog'ida Jasurbek kirib keldi. Onaning quvonchiga quvonch qo'shildi. Oila ahli jamuljam, dili xotirjam edi. Kamtargina xonadon nurga to'ldi, go'yo. Nurafshon opa farzandlari kamolida nurli istiqbolni his qilib turardi.

OLIY TA'LIM yana istloh qilinmoqda

Oliy ta'lim bo'yicha o'zgarishlar o'tgan haftaning eng muhim xabarlariga qatoriga kirdi. Gap shundaki, Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida oliy ta'lim tizimi bo'yicha o'tkazilgan taqdimotda kelgusi o'quv yilidan boshlab amal qiladigan o'zgarishlar belgilab berildi.



Unga ko'ra, endi muayyan bir yo'nalishga ajratilgan davlat granti doirasida yuqori ball to'plagan abituriyent tanlagan oliy ta'lim muassasasidan qat'i nazar, davlat grantiga tavsiya etiladi. Ya'ni yuqori ball olgan yoshlar o'qishga kirmay qolmaydi. Bu albatta, quvonchli xabar. Necha yillab bilim olgan, oliy ma'lumot orzusida bo'lgan yoshlarning sohadagi "qobiqlar" sabab ko'ngli o'ksib qolmaydi.

Bundan tashqari, o'qishga kirish uchun minimal o'tish ballari o'zgardi. Ya'ni o'qishga kirish uchun minimal o'tish bali 2 bosqichda amalga oshirilib, sog'liqni saqlash, huquq, biznes va boshqaruv yo'nalishlari uchun – 94,5 ball, boshqa yo'nalishlar uchun – 75,6 ball etib belgilanadi (*amalda barcha yo'nalishlar uchun – 56,7 ball edi*).

Sirtqi ta'lim shakli uchun kvotalarni kunduzgi ta'lim shakli uchun ajratilgan kvotadan oshirmaslik belgilanadi. Sirtqi ta'lim shakli bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklini kengaytirish va uzaytirilgan ta'lim shaklini joriy etish orqali tugatiladi.

Oliyogham hamda kollej va texnikumlarga qabul qilish imtihonlari "avval test, so'ng tanlov" tamoyili asosida o'tkaziladi. Abituriyentlar testni 1 marotaba topshiradi va to'plagan bali bilan dastlab oliyoghamga, bali oliyoghamga yetmagan taqdirda, professional ta'lim tashkilotiga kirish uchun tanlovda ishtirok etadi. Oliyoghamlarga qabul jarayoni 2 bosqichda:

1-bosqich ro'yxatdan o'tish va test fanlarini tanlash;

2-bosqich oliyogham – test natijasi e'lon qilingandan so'ng ta'lim yo'nalishi va shaklini tanlash orqali amalga oshiriladi.

Yana bir yangilik: endi davlat granti 4 yilga bitta talabaga emas, balki har yili yuqori baholarga erishgan talabalar orasida qayta taqsimlanadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim bo'yicha yillar davomida islohotlar olib borilgan. Bu yilgi o'zgarishlar boshqalaridan farqli o'laroq, bilim yoshlarni OTMd o'zlarining munosib o'rinlarini topishlari uchun dadil qadamlardir. Xo'sh, bu haqda boshqalarning fikri qanday?

Dilmurod TILOVOV, O'zJOKU talabasi:

– E'tiborimni tortgan o'zgarishlarning asosiysi davlat grantini faqat 1 yilga berilishidir.

Ammo yangi tartib faqat joriy yilda o'qishga kiradigan 1-bosqich talabalari uchun taalluqli, hozir o'qiyotgan talabalarga yangi tartib amal qilmas ekan. Bundan ikki xil fikrdaman, ham ijobiy, ham salbiy. Ya'ni o'zim kontraktida o'qiyotganim sababli uni to'lash ba'zida oilamga og'irlik qiladi, qiynalغان vaqtlari ham bo'lgan. Agar shu imkoniyat ishlashni boshlasa, o'zimdan kelib chiqib aytamanki, oilasidagilarga moddiy tomondan yordam bo'lishi uchun astoydil o'qiydi. Lekin tanganing ikkinchi tomoni, yuqori ball to'plash inson omiliga bog'liq. Davlat grantida o'qish imkonini belgilanishi boshqa "qiyshiq eshiklar"ning ochilishiga sabab bo'lmasa kifoya. Shu yo'nalishda yanada aniqroq ishlaydigan, nazorati kuchliroq bo'lgan tizim yaratilsa, yaxshi bo'lardi.

Shahlo RAHMONOVA, o'qituvchi:

– Ta'lim aslida murakkab jarayon. Yoshlar bilan ishlash o'zi bir mashaqqat bo'lsa, ular bilan tizimli ishlash ikkinchi muammo. Zamon tezlashib boryapti, o'zgarishlar, yangiliklar kundan kunga tobora ortib bormoqda. Bunga moslashishimiz lozim. Oliy ta'lim sohasidagi o'zgarishlar juda yaxshi. O'ylanganidek amalga oshirilsa, kutilayotgan natija butun bir millatimizga foydali bo'ladi. Birinchi galda davlat granti bir talabaga 4 yilga emas, 1 yil uchun berilishi juda katta burilish. Lekin xohlardimki, sohadagi o'zgarishlar ayni kirish imtihonlariga yaqin muddat qolganda emas, avvalroq ma'lum qilinsa, abituriyentlarni shoshirib qo'ymasdi. Avvaldan bilib, tayyorgarligini ko'rishardi.

Yana bir jihat magistratura va doktoranturaga qabul qilishda xorijiy tilni bilish o'g'risidagi sertifikat talabidagi o'zgarishdir. Ta'lim dasturini xorijiy tilda yakunlagan talabalar uchun sertifikat talabi bekor qilindi, soha xususiyatidan kelib chiqib madaniyat, san'at, sport, ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, muhandislik ishi, qishloq xo'jaligi, veterinariya, arxitektura va qurilish, fizika va tabiiy fanlar, transport xizmatlari yo'nalishlari bo'yicha sertifikat talabi bir pog'ona – B1 darajasiga tushirildi, ba'zi yo'nalishlarda esa B2 darajada saqlanib qoldi. Chet tilni bilish to'g'risidagi sertifikat talabi yaqin ikki yil ichida qo'yilgan edi. Shu davrda o'qishga kimlar kirolmadi? Mana shu jihatlarda avvalroq e'tiborga olinganida nur ustiga nur bo'lardi. Ta'lim sinov maydoni emas, sinov tariqasida o'tgan vaqt – bir necha yillar jamiyatimizda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aytmoqchimanki, davlat grantida o'qish bo'yicha yaxshi o'zgarish qilinmoqdami, buning ortidan yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni avvaldan ko'rish, uning oldini olish zarur. Ta'lim yana korrupsiya maydoniga aylanib ketmasin!

Ro'ziqul OCHILOV taysyorladi.

Davra suhbat

BARQARORLIK OMILI



oqibatlarini, uning oldini olish, dinlar o'rtasida o'zaro ishonch, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquqlik, tinchlik va totuvlikni targ'ib qilish davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadlaridan biridir.

Tadbirda so'z olgan mutasaddilar tomonidan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, milliy mentalitetimizga yot, zararli ta'sirlarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalashga, dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan, din niqobi ostida faoliyat olib borayotgan turli diniy ekstremistik tashkilotlar yoshlarni aldov yo'li bilan o'z saflariga qo'shib olayotgani, talaba-yoshlar bunday guruhlar tahdididan doimo ogoh va hushyor bo'lishi kerakligi to'g'risida fikr-mulohazalar bildirildi.

Jamshid NAZAROV, Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti tuzatori

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetida yoshlarni radikal g'oyalardan asrash, ekstremistik g'oyalarga aldanib qolmasligining oldini olish maqsadida davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Tadbirda viloyat IIB boshqarmasi katta mutaxassisi I. Suyunov, O'zbekiston musulmonlar idorasi Surxondaryo viloyati vakilining xotin-qizlar masalalari bo'yicha yordamchisi X. Qosimova, universitet profilaktika inspektori S. Allanazarova, fakultet dekani H. Ahmedov,

tyutorlar hamda talabalar ishtirok etdi.

Uchrashuvda so'z olganlar o'sib kelayotgan yosh avlodni turli buzg'unchi g'oyalardan radikal guruhlar qo'shilib ketishining oldini olish bo'yicha aniq choralarini qo'llash haqida gapirdi. Asosiy e'tiborni ma'rifatga, yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga qaratish, ularda bilim va o'z ustilarida ishlashga intilishni shakllantirish muhim ekani ta'kidlandi.

Bugungi kunda yurtimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalari keng targ'ib qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy



Uni birinchi bo'lib o'g'ilchasi Diyorbek ko'rdi. "Adam keldilar", deb unga tomon uchdi. Orqasidan atak-chechak qadam tashlab mitti Nargiza qo'llarini oldinga cho'zib, unga ergashdi. Salom berib, xotini istiqboliga chiqdi, qo'shni hovlidan jiyanlari yugurib keldi. Akasi, kelinoyisi chiqdi. Hamma bilan ko'rishar ekan, ko'zlari bilan onasini qidirdi, yopiq eshikka xavotirli ko'z tashladi.

ONASINING ETIGINI KIYIGAN BOLA

– O'yijon dugonalari Robiya xolani ko'rgani ketdilar, – dedi xotini xuddi uning xayolini uqqandek, – xola kasal ekanlar. Sizning kelishingizni bilmadilar, bilsalar, saharlab ko'cha eshik oldida o'tirib kutardilar.

– Nega o'zing mashinada olib borib kelmading, mashina garajda o'rab-chirmab qo'yishga emas, oyimga, sizlarga xizmat qilishi kerak.

– Aytdim, o'zlari ko'nmadilar, siz bolalarning oldida bo'ling, o'g'lim xizmat safaridan qaytganida uy kimsasiz bo'lmasin, dedilar, xuddi sizning ertaroq qaytishingizni sezgandek, – shunday deb jilmaydi ayol. – Hali-zamon kelib qoladilar, kelganingizni aytmay turamiz, hovlida sizni ko'rib, bir sevinislar.

Xotining bolalarcha gapiga kulib, kiyimlarini almashtirgani uyga kirdi. Oqshom hovli quvnoq g'ovurga to'ldi. Kechlikni aka-ukalar birga qildi. Bunday paytlar onasidan baxtli odam bo'lmasligini Orif yaxshi biladi. Har narsadan noliyveradigan akasidan ichida norizo bo'ladi, sirtiga chiqarmaydi. Oyim ham ancha keksayib qoldilar. Nima keragi bor ekan noliyverishning. Oyim bechora yolg'iz o'zlari bizni oyoqqa qo'yganlari ham yetarli emasmi? Qanday og'ir kunlarni boshdan kechirdilar. Dadasining o'limi, amakining uyida sig'indi kabi yashash. Bobosi hayotligida bilinmagan ekan, u ham olmandan o'tganidan keyin bu uy ularga tamoman yot bo'lib qoldi. Yaxshiyam bobosi yog'och oyog'i bilan turli eshiklarga qatnab, shahardan tashqarida ular uchun bir parcha yer olgan ekan. Ijara uylarda uzoq sargardonlikdan so'ng shu yerda boshpana tiklashdi. Amakisi bu yerga ham ega chiqmoqchi edi, yetim haqqini taniydigan odamlar aralashgach, o'zini tortdi.

Hamma ketganidan so'ng onabola yana picha gaplashib o'tirdi. Shu payt ichkari uydan Diyorbek chiqib kelib, adasiga suykaldi.

– U sening safardan qaytishingni sabrsizlik bilan kutdi, jiddiy gapi bor, menga ham aytmadi, – dedi onasi mehr to'la ko'zlari bilan ularni erkalar ekan.

– Buvijon, erkakcha gap edi-da, – dedi chopqillab kelib buvisining qulog'iga pichirlab.

Orif kulib yubormaslik uchun yo'talib qo'ydi.

– Buving o'rgilsin, mana, ro'molim bilan quloqlarimni yaxshilab berkitdim, endi hech narsani eshitmayman, sizlar gaplashavering erkakcha gagingizni, – kampir shunday deb engashib, dasturxonidan to'kilgan ushoqlarni bittalab tera boshladi.

– Adajon, Hafiza bor-u...

– Ha, adasi yurolmay qolgan qizchami? Nima bo'ldi, sinfdoshlaring yana xafa qilyaptimi?

– Yo'q, xafa qildirganim yo'q, ammo baribir xafa qilishadi.

– Nima qilay, borib, sinfdoshlaringni tartibga chaqirib qo'yaymi?

– Yo'o'o'q... ertaga uning tug'ilgan kuni. Rasm chizadigan albomi yo'q. Keyin... yana... krossovkasi yirtiq, oyog'ining uchi ko'rinib turadi.

– Seni tushundim, Diyorbek, – dedi Orif xuddi katta odam bilan gaplashayotgandek. – Ertaga oying seni maktabdan olayotganida albom bilan krossovka olib boradi, sovg'ani o'z qo'llaring bilan Hafiza qizga berasan.

– Rahmat, adajon! Siz dunyodagi eng yaxshi adasiz! – deya Diyorbek adasining bo'ynidan mahkam quchib, yuzlaridan o'pdi.

– Sen esa dunyodagi eng bebaho bolasan! – dedi Orif bolasini bag'riga bosib.

“Hech narsani eshitmagan” kampir ro'molining uchini ko'zlariga bosdi. Ko'ngli xotirjam tortgan bola kattalarga e'tibor

bermay, yana ichkari uyga chopqilladi.

– Diyorbek o'zingga o'xshadi, mehribon, rahmdil... – kampirning ovozi yig'i titrog'i bor edi.

Orif onasining sertomir qo'llarini kaftlari orasiga oldi:

– O'yijon, yig'lamang, yig'lasangiz, men o'zimni juda g'arib his qilaman.

– Bolam, odam qariyversa, har narsadan ta'sirlanib, shunday yig'loqi bo'lib qolar ekan-da, shukr qilganimdan, shu kunlarni ham ko'rdim deya suyunganimdan bu ko'z yoshi... Bolam, olis yo'ldan kelding, charchagansan, endi bolalaringning oldiga kir, seni sog'ingan hammasi. Salqin tushib qoldi, men ham dam olaman.

Orif oyisining qo'ltig'idan tutib, xonasiga kuzatib qo'ydi. O'zi yana tashqariga chiqdi. Hovlidagi oppoq gullagan bir juft olma daraxtiga boqdi. Diyorbek uning xayollarini ostin-ustun qilib yuborgan edi.

O'n ikki yoshda edi. Qarindoshlari uning katta bo'lib qolganini aytar, biron ishning boshini tutishini istar edilar. Ayniqsa, amakisining xotini. Kelinoyisining jag'i tinmasdi: “Tayyorini yeb yotavergan bilan uy-joy osmondan tushmaydi! Eringiz ham bir kunim o'tsa bo'ldi, deb yuravergan ekan-da! Mana, bir mulla akangizga uch dardisami tashladi-ketdi! O'zinikilari kamlik qilganday, yana chol-kampir ham bor!..” Amakisi ham xotining gapini ma'qullagandek g'iq etib og'iz ochmasdi. Oyisi hamma alamini mehnatdan olmoqchi bo'lgandek tinim bilmasdi.

Shunday qilsa, jon olguvchi bu minnatlardan qutuladigandek.

Onasi g'isht zavodiga ishga kirdi. Mehnati og'ir edi. G'isht peshma-pesh chiqib turar, temir izlar ortilganda to'kilgan g'isht parchalaridan tozalab turilmasa, vagonlar to'xtab qolardi. Issiq, chang... Orif maktabdagi darslardan

keyin oyisiga yordamlashishga boradi. O'sha paytda oyisi birpas o'tirib tin oladi, uni uzoq alqaydi.

O'shanda akasi qayerda edi? Amakisining yonida, choyxona ishlariga yordam bergandek yurardi. Orifning nazarida akasi ulardan o'zini olib qochgandek tuyulardi. Ukasi kabi o'zini har ishga uravermas, qarindoshlariga yoqishga urinar, aksiga olib, ular ham uni o'zlariga yaqinlashtirgisi kelmasdi. Shundanmi, doim norizo kayfiyatda yurardi.

Bola bola-da, Orif bir kuni o'rtoqlari bilan o'ynab qoldi. Oyisining yoniga kechroq bordi. Uzoqdan oyisiga ko'zi tushdi. Qo'li qo'lga tegmaydi, chang, terga botgan... Bolaning yuragi ezildi. O'zini yomon ko'rib ketdi. Chetroqda turgan sovuq choyni oldi-da, onasiga qarab yugurdi. Qo'lidan supurgisini olib, temir izlarni tozalashga tushib ketdi. Temir izlarga tomayotgan termidi, ko'z yoshlarimi... buning unga farqi yo'q edi. Koshki otasi tirik bo'lsa, oyisi bunday og'ir ishlarda ishlamasa...

Oyoq kiyimini qancha avaylamasin, baribir titilib ketdi. Onasiga ko'rsatmasdan o'zi u yoq bu yog'ini to'g'rilab, tikib ko'rdi, bo'lmadi. O'sha paytlari poyabzal ham qahatmikan, yo qimmatlik qilarmidi. Nihoyat, oyisi chidolmadi. Yangi oyoq kiyim olib berdi. Orif o'shanda osmonlarga uchgandi. Nihoyat, yangi poyabzal kiygan edi.

Poyabzal olganining ikkinchi kuni o'rtoqlari bilan katta yuk mashinasining ortidan yugurdi. U yo'lning ma'lum qismiga kelganida sekinlashar, bolalar paytdan foydalanib, osilib olardi. Orif hammadan chaqqon edi. Birinchi bo'lib osilib oldi. Negadir mashina tezlasha boshladi. Cho'chib o'zini yerga otganida oyoq kiyimi ilinib, tagi bilan uzilib tushdi.

Tirsaklari shilini qoni chiqib ketganiga ham parvo qilmay, ustaga yugurdi. Usta u yoq bu yog'ini aylantirib ko'rib, qaytarib berdi. “Endi yaramaydi, tikib bo'lmaydi buni”, dedi. Orif chekkaroqqa o'tib, alam bilan yig'lab yubordi. Shu oyoq kiyimi yirtilguncha mashinaning ostida qolib o'lganim yaxshiydi, deb battar o'ksidi. Shu oyoq kiyimni olib berguncha onasi qanchalar qiynalgan edi, u esa ikki kunda uni yaroqsiz qilib qo'ydi.

Hademay sovuq kunlar boshlandi. U qishni, yog'ingarchilik kunlarni juda yomon ko'rardi. Havo bulutlandi deguncha, bolalarcha Xudoga yolvorardi: “Xudojon, yog'ingarchilik yog'dirma, sovuq bo'lmasin, mening etiklarim, issiq kiyimlarim yo'q”.

Uning ohlari yetib borgandek, o'sha yili yog'ingarchilik kam bo'ldi-yu, ammo yaxshigina qorasovuq bo'ldi. Yupqagina kurtka bolaning tanasini isitmas, sovuqda bukchayibgina o'zini quchib yurganidan kuraklari qaqshab og'rirdi. Bir kecha ho'l qor yog'di. Tongda havo ochilib ketgan bo'lsa ham, yerlar loy bo'lib ketgandi. Uning esa kiyishga na botinkasi, na etigi bor edi.

– Mening etigimni kiyib borasan, – dedi oyisi.

– O'zingiz nima qilasiz? – Eski kalishlarni amallayman. – Kiyimayman bu etikni!

O'rtoqlarim ayollarning etigini kiygan, deb ustimdan kuladi. Maktabga bormayman! – deb yig'ladi.

Onasi unga qo'shilib yig'lashdan o'zini zo'rg'a tutib, ovutdi:

– Ayollar etigi ekani bilinmaydi. Mana, qara, ko'rinishi qanday qo'pol. Bolajonim, sen maktabga borishing, o'qib, katta odam bo'lishing kerak. Axir sendan umidlarim katta. Bog'chasi bor uyimiz, issiq kiyimlarimiz bo'lishini xohlaysan-ku. To'g'rimi?!

U onasiga ishondi. U o'qib, katta odam bo'lishi kerak. Onasining beo'xshov etigini kiyib, maktabga ketdi. Sinfdosh qizlarning piqirlab kulganini aytmaganda o'rtoqlari unga unchalik ham e'tibor bermadi. Uning nazarida shunday edi.

Oradan yillar o'tdi. Hamma narsa o'z iziga tushdi. O'qidi, mehnatdan qochmadi. Endi uylari bor. Qish ham bahor kabi go'zal, jozibali va quvnoq bir fasl ekan, asli.

Oxirgi sinfdoshlar yig'ini unutilmas bo'ldi. Bayram avjida ekan, sinfdoshi Fazilat so'z aytishini bildirdi:

– Qadrdon sinfdoshlar, bilasiz, men erka o'sganman, hech narsadan kamchiligim bo'lmagan. 90-yillar juda ko'p insonlar uchun og'ir kechganini ulg'ayib, turmushga chiqqanimdan so'ng bildim. Erim ish odami, ko'pchiligingiz uni taniysiz. Bir kuni oilasi boshdan kechirgan qiynchiliklarni gapirib berganida, ochig'i, yig'lab yubordim. Bilasizmi, o'sha lahzalarda nima yodinga tushdi? Orifni esladim... Maktabga onasining etigini kiyib kelgan edi. Qotib-qotib kulganim esimda... Va bundan juda uyalaman, yidjonim qiynaladi. Senga qanchalik og'ir bo'lganini tushunmaganman. Bola bo'lganman... Men yomon odam emasman! Orif, meni kechir, sinfdosh!

Boyagi quvnoq g'alag'ovurdan asar qolmadi. Og'ir jimlik cho'kdi. Hammaning ko'zi Orifda. U sekin o'midan turdi. Fazilatga yaqinroq bordi:

– Fazilat, sen buni kech bo'lsa ham tushunding, muhimi shu. Sen yaxshi odamsan, buni bilamiz.

– Bolam, nega bedorsan, tinchlikmi? – onasining xavotirli ovozi uni o'ziga keltirdi.

– Tinchlik, oyijon, tinchlik, – dedi onasini tinchlantirib, tetik ovozd. – Qarang, ekan olmalarimiz bu yil bir boshqacha gullabdi. Tagidagi halinchakka qarab, bolalik orzularimni esladim. Xuddi shunday uyni, halinchakli bog'chani, sizni nevaralar bilan baxtli ko'rishni o'yildim. Shukr, niyatimga yetdim.

– Bularning bari sen bilan fayzli, sen bilan tatimli, bolam.

Bir-biriga suyanib o'tirgan ona-bola yoniga uxlamay injiqlik qilayotgan qizchasini ko'tarib, ayoli chiqib keldi. Ularni ko'rib, go'dak sevinib qiyiqirdi. Orif qizini quchoq'iga oldi. Tun ham bu bedor insonlarga qiziqib, allaqanday yog'dularga to'lib ketdi.

Salomatlik

Energetik ichimliklar qo'shimcha quvvat beruvchi, ya'ni organizmdagi energiya zaxirasi sarflanishi hisobiga ish qobiliyatini oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan.

yaxshilanishi uchun muhim ahamiyatga ega degan taassurotni yuzaga keltirmasligi kerakligi ko'rsatilgan.

Darhaqiqat, ko'pchilikning e'tiborini idish qadog'idagi taqiq belgisi emas, reklamalardagi mo'jizakor, yorqin holatlar jalb qiladi. Reklamalar aynan o'smir yoshdagi bolalar va yoshi katta insonlarga ko'proq ta'sir ko'rsatib, ularda o'sha reklamadagi narsaga nisbatan ishonch paydo qiladi. Biroq o'tgan yillar davomida energetik ichimliklar tarkibidagi kofein miqdori bir finjon qahvadagidan kamroq ekani va me'yorga amal qilinsa, ularning zarari deyarli yo'qligi borasida bahsmunozaralar to'xtamay kelmoqda. Bu ichimliklar tarkibiga asosan uglevodlar,

go'shti va dukkakli donda bo'ladi. U oqsil va yog'ning normal hazm bo'lishini ta'minlab, azot almashinuvida muhim rol o'ynaydi. Odam organizmi uchun zarur miqdordagi piridoksin ichak bakteriyalari ta'sirida hosil bo'ladi.

Folat kislotasi (B₉ vitamini) ba'zi aminokislotalar almashinuvi, nuklein kislotalar sintezida qatnashadi, ko'mikning qon yaratish faoliyatini kuchaytiradi, B₁₂ vitaminining yaxshi o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ichak mikroorganizmlari folat kislotasini ko'p miqdorda sintezlaydi. Bir sutkada inson organizmi uchun zarur bo'lgan

ENERGETIK ICHIMLIKLAR SOG'LIQ UCHUN ZARARLI(MI?)

Tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan, kayfiyatni ko'taradigan, charchoqni yo'qotadigan ichimliklar qadimdan ma'lum bo'lgan. 1938-yilda angliyalik Smit-Klyayn Bichamon sportchilar uchun Lukozade deb nomlangan qo'shimcha quvvat beradigan ichimlik ishlab chiqaradi. 1962-yilda Yaponiyada ham shunga o'xshash ichimlik tayyorlanadi. Avstriyalik tadbirkor Ditrix Mateshis Gonkongga xizmat safari davomida ilk bor quvvat beruvchi ichimlikdan tatib ko'radi va 1984-yilda o'zi Yevropada shunday mahsulot ishlab chiqarishga qaror qiladi hamda hozirda ko'pchilik yoshlar orasida mashhur brendga aylangan ichimlik "Red Bull" deb nomlanadi.

Dastavval inson salomatligi uchun zararsiz deb hisoblangan energetik ichimliklar asta-sekinlik bilan Yevropa va AQShni zabt etdi. Ammo bu ichimliklar keyinchalik salomatlikdan ko'ra ko'proq biznesga xizmat qila boshladi. Shuning barobarida ichimlikni ommalashtirish maqsadida uning tarkibiga bir qancha kimyoviy moddalar qo'shib borildi.

2014-yilga kelib Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti dunyoda voyaga yetmagan o'smirlarning energetik ichimlikni ko'p iste'mol qilayotgani tashvishlanarli hol ekanini bildirdi. 2017-yilda Amerikaning Shimoliy Karolina shtatida 16 yoshli o'smirning o'limiga ko'p miqdorda iste'mol qilingan energetik ichimlik sabab bo'lgani taxmin qilindi. Ayni vaqtda dunyoning ko'pgina davlatlarida energetik ichimliklar sotuviga qonuniy cheklovlar belgilangan. Masalan, aksariyat mamlakatlarda 18 yoshga to'lmagan shaxslarga bu kabi ichimliklarni sotishga cheklov o'rnatish bilan chora ko'rilayotgan bo'lsa, Daniya, Turkiya, Norvegiya, Islandiya kabi mamlakatlarda va AQShning ayrim shtatlarida energetik ichimliklar sotuvi butunlay taqiqlangan.

Mamlakatimizda ham bu borada qabul qilingan qonunga bir qator tartiblar belgilangan bo'lib, energetik ichimliklarning 18 yoshga to'lmagan shaxslarga realizatsiya qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, energetik ichimliklar reklamasida haddan ziyod iste'mol qilishning zarari to'g'risidagi ogohlantirish, iste'mol qilish tavsiya etilmaydigan shaxslar haqidagi axborot mavjud bo'lishi, iste'mol qilish jarayonlari namoyish etilmasligi, iste'molchilarning ijtimoiy va sportga oid muvaffaqiyatga erishishi yoki jismoniy hamda ruhiy holati

taurin, kofein, pantotenat kislotasi (vitamin B₅), piridoksin (vitamin B₆), folat kislotasi (vitamin B₉), askorbin kislotasi (C vitamini) kiradi.

Uglevodlar (shakarlar, glitsidlar) oqsillar va yog'lar bilan bir qatorda odam organizmi uchun zarur bo'lgan keng tarqalgan organik birikmalar guruhidir. Organizmda moddalar almashinuvida hosil bo'ladigan energiya manbalaridan biri hisoblanadi.

Taurin qo'shimcha modda bo'lib, organizmda vitamin B₆ ishtirokida ishlab chiqarilgani sababli taurinni tashqaridan qabul qilishga organizmning ehtiyoji yo'q. Katta yoshdagi odamlar organizmida tana vaznining 1 kg da 1 g taurin moddasi mavjud. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar organizmi taurinni sintez qila olmagani sababli organizm o'zi uchun zarur bo'lgan taurinni ona sutidan oladi. Organizmda taurin yetishmovchiligi juda kam kuzatiladigan holat (faqatgina B₆ vitamini yetishmagan holatlarda kuzatilishi mumkin). Ammo muntazam iste'mol qilish yurak o'ynashiga, uyqusizlikka sabab bo'ladi.

Kofein tetiklantiruvchi, uyquga to'yimaslik va charchoq bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradi, biroq kofein iste'molini me'yordan oshirish organizm uchun jiddiy xavf keltirib chiqarishi mumkin. Me'yor deganda kuniga 400 milligramm qahva tushuniladi. Bu taxminan 4 finjon qahva. Tarkibida kofein tutuvchi ichimlik iste'mol qilganda organizmga kofeinning me'yordan ko'p tushishi natijasida qizarish, yurakning tez urishi (taxikardiya), mushaklar, nutq, fikrlash hamda oshqozon-ichak trakti faoliyatining buzilishi kuzatilishi mumkin. Qolaversa, asabiylashish, asossiz bezovtalik va kayfiyatning o'zgarishi ham kofein miqdori ko'payishi natijasida yuzaga keladi.

Pantotenat kislotasi (B₅ vitamini) o'simlik va hayvon to'qimalarida ko'p. Asab tizimi hamda buyrak usti va qalqonsimon bezlar faoliyatini me'yorlashtiradi. Bir sutkada inson organizmi uchun zarur bo'lgan me'yori - 4-12 mg. Bu vitamin no'xat, achitqi, bug'doy va jo'xori yormasi, sabzi, karam, sarimsoq, buyrak, yurak, tovuq go'shti, tuxum sarig'i, sut, baliq ikrasida bo'ladi.

Piridoksin (B₆ vitamini). Bir sutkada inson organizmi uchun zarur bo'lgan me'yori - 1,6-2 mg yoki 300 g mol go'shti iste'mol qilish yetarli bo'ladi. Bu vitamin achitqi, bug'doy murtagi, jigar, baliq, mol

me'yori 400 mkg. Bu vitamin no'xat, achitqi, yong'oq, banan, apelsin, qovun, o'rik, loviya, jigar va buyrakda ko'p bo'ladi.

Askorbin kislotasi (C vitamini). Bir sutkada inson organizmi uchun zarur bo'lgan me'yori - 70-100 mg yoki 1-2 ta apelsin iste'mol qilish kifoya. Bu vitamin moddalar almashinuvida, biriktiruvchi to'qimalarning o'zlashtirilishida, to'qimalarning normal holatda tutib turilishi va tiklanishida muhim ahamiyatga ega. Organizmda C vitamini yetishmasa, tog'ay va suyak to'qimalari tuzilishi buziladi. Organizmda askorbin kislotasi hosil bo'lmaydi va to'planmaydi. C vitamini sabzavot va mevalarda bo'ladi.

Energetik ichimliklarning foydali tomoni bormi?

"Quvvatbaxsh" ichimliklar kayfiyatni ko'tarishi bor gap. Hattoki u tanadagi charchoqni biroz qoldiradi va bir muddat aqliy faoliyatni yaxshilashga yordam beradi. Qizig'i shundaki, ushbu ichimliklar o'zingizning quvvatingizni jamlab, bir vaqtning o'zida yana o'zingizga sarflaydi. Ushbu ichimliklarni iste'mol qilish foydali deyishdan yiroqmiz, chunki energetik ichimliklar tarkibiga kiruvchi moddalar organizmda yetarlicha sintez qilinadi yoki oziq-ovqatlar bilan organizmga tushadi.

Zararli tomoni-chi?

Energetik ichimliklarning xavfli tomoni shundaki, oz miqdordagi suyuqlik bilan ko'p miqdorda kofein va taurin iste'mol qilinadi, natijada inson organizmida ichki rezerv ishlashi faollashadi. Voyaga yetmagan yoshlar muntazam iste'mol qilsa, yurak xastalıkları bilan bog'liq muammolar, vahima va aqliy nuqsonlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Energetik ichimliklarni ko'p miqdorda doimiy iste'mol qilish yurak xurujiga, qon bosimining ko'tarilishiga, semirishga, organizmning suvsizlanishiga, tish emali yemirilishiga, jigarning zararlanishiga, ishtahaning yo'qolishiga, bosh og'rishiga, toqatsizlanishga va asabiylashishga, uyqusizlikka, tobelikka sabab bo'ladi.

Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarining sog'lig'ini saqlash hamda mustahkamlashga katta e'tibor berilmoqda. Shu jumladan, energetik ichimliklarning salbiy ta'siri bo'yicha shaxsiy tarkib o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda, suhbatlar o'tkazilmoqda. Harbiy xizmatchilar

tomonidan harbiy qism va muassasalar hududiga energetik ichimliklar olib kirish va kundalik faoliyati hamda jismoniy mashg'ulotlar davomida ichish holatlari man qilingan, harbiy shaharchalarda energetik ichimliklar savdosi cheklangan.

Shuni unutmang, sog'lig'ingiz o'z qo'lingizda. Agar bu illatga qarshi kurashmasak, vaqtda uning oldini olmasak, kelgusida o'zimiz va kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlod aziyat chekishi shubhasiz.

Tibbiy xizmat mayori
E. BEKKAMOV,
A. SARIMSAKOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi mutaxassislari



BODI-ART

ZAMONAVIYLIK BELGISIMI?

Metroda yonimda ketayotgan yigitcha ro'paramizda o'tirgan qizni nigohi bilan ko'rsatib, sherigiga shivirladi:

– Anavini qara, chayoni bor ekan.

Sherigi uni tushunmadi shekilli, bir dugonasi bilan gap sotayotgan qizga, bir o'rtog'iga qaradi.

– “Ketvorgan” ekan demoqchimisani?

– Yo'g'-ey, bilagiga qara, bilagiga!

Men ham qiziqib, yigitcha imlagan tomonga nigoh tashladim. Ro'paramizda o'tirgan qizning bilagiga dumini gajak qilib turgan chayon rasmi solingandi. Shu payt poyezd to'xtab, dugonalar o'rinlaridan turdi. E'tiborimizni tortgan qizning hamrohi vagonning tepa tutqichidan ushlab uchun qo'lini ko'targan edi, belini salgina yopib turgan koftasi ko'tarilib, badanida “to'riga yopishgan o'rgimchak” ko'rindi. Buni ko'rgan yigitchalar endi ochiqchasiga kula boshladi:

– Qara, chayonning zo'ri bu yoqda ekan!

– Chiqib kelayotgan joyini qara...


Qizlar gap o'zlari haqida ketayotganini bilib, lablarini burdi-da, vagonidan tushib ketdi.

Bu voqeani kuzatib turgan yoshi kattaroq ayol boshini chayqab qo'ygan bo'lsa, boshqasi “Eh” deganicha yana qo'lidagi telefonga tikildi.

Afsuski, ayrim yoshlar orasida urf bo'layotgan bodi-artning (ingliz tilida “tana san'ati” degan ma'noni bildiradi) tarafdorlari sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Qizlarimiz, kelinchaklarimizning “qosh-ko'zini popukdek, labini g'unchadek” qilib qo'yishga ixtisoslashgan tatuaj salonlari ham yomg'irdan so'ng potirlab chiqqan qo'ziqorindek ko'zga tashlanib boryapti. Ularda nafaqat qosh va lab, balki tananing istalgan joyiga naqsh solinadi. Bu xizmatni cho'ntak ko'tarsa bo'lgani. Ko'p holatlarda surat igna orqali tanaga rang kirgizib chiziladi (tatuirovka).

Bodi-artning ilk ko'rinishlari XX asr boshlarida paydo bo'lgan. 1960-yillarga kelib, u Yevropada keng tarqaladi. Aynan shu yillari bodi-art vakillari o'z tanasini ijod materiali sifatida namoyon qilib, aksariyat holatlarda og'riqli amallarni bajaradi. Masalan, fransiyalik J. Pan sochini yoqish orqali boshiga

rasm soladi, avstriyalik R. Shvarskogler o'z tanasidan kichik-kichik bo'laklar kesib olib, “yarali surat” yaratish jarayonida ko'p qon yo'qotib, o'sha yerning o'zida vafot etadi.



1960–1970-yillarda

L. Ontani, R. Xorst, X. Vilke, P. Kotton, U. Luti, Y. Klauke, L. Kastelli, V. Trasov, P. Oleshko yalang'och tanani turli ranglarga bo'yab, “modalar festivali”ni tashkil etadi va bodi-artning bodipeynting, ya'ni tanaga surat chizish yo'nalishiga asos soladi. Bugungi kunda bodi-artning feys-art (yuzga rasm solish), neyl-art (tirmoqlarni bo'yash), mendi-art (tanaga xina yordamida rasm solish), pirsing (tananing ma'lum bir qismini teshib, taqinchoq taqish), skays (tishni bo'yash), ko'z implantlari (ko'zning oqiga rasm solish), skarifikatsiya yoki breeding (chuqur yaralar orqali tanaga biror bir naqshni chizish, tamg'a bosish) kabi turlari mavjud.

Albatta, bodi-art tarafdorlari, avvalo, omma ichidan ajralib turish, o'z tanalarini ko'z-ko'z qilish, o'zgalar e'tiborini tortishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va bu yo'lda hech narsadan qaytmaydi. Afsuski, yengil tabiatli o'smirlar, yoshlar ularga ko'r-ko'rona ergashadi va tanasiga chizdirayotgan rasmlarning tub mohiyatida ma'lum bir ma'no-mazmun bor-yo'qligi haqida o'ylab ham ko'rmaydi.

Jahon xalqlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hindlar, hindular, Afrika, Avstraliyada istiqomat qiladigan ba'zi bir qabilalar dunyoqarashlari, diniy e'tiqodlariga ko'ra, tanalariga rasm chizib, bo'yagan, turli taqinchoqlar taqqan. Keyinchalik o'g'ri, firibgar, qallob, qotil, fohishalarga qilgan jinoyatiga qarab, tanasiga turli qizigan temir bilan tamg'alar bosilgan. Natijada XIX asrning oxiriga kelib, hibsga olingan jinoyatchilar o'rtasida tanaga turli naqshlar (nakolkalar) solish

urf bo'ladi va ular qamoqxonada ma'lum bir mavqeni egallagan. Jinoyatchilar



o'rtasida mazkur odat hozir ham saqlanib qolgan. Jinoyatchining bilagi, qo'li, bo'yni, tanasiga chizilgan turli tatuirovkalariga qarab, ularning nima jinoyat qilganini osongina aniqlash mumkin.

Endi yuqorida keltirilgan voqeaga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayrim qizlarning tanasiga chizilgan chayon va o'rgimchak suratlari jinoyatchilik olamida o'z ma'nosiga ega. Chayon zo'raonlik, qasos olish ma'nosini bildirsa, o'rgimchak – giyohvandlarning o'ziga xos belgisi. Shuningdek, o'rgimchak suratini o'g'rilar o'z tanasiga chizdiradi, u tananing qaysi joyidaligiga qarab, ma'no anglatadi. Qizlar bundan bexabar

bo'lsa kerak, aks holda, bunday tamg'ani bostirmagan bo'lar edilar.

Xalqimiz qadimdan ayolni, ayniqsa qiz bolani hayosi, odobi, ibosi uchun hurmat qiladi, qadrlaydi. Bugungi kunda uning bu xislatlariga qizlarimizning bilimi, keng dunyoqarashi, o'z yurtiga, ota-onasiga, tug'ilib o'sgan ona tuprog'iga bo'lgan mehr-muhabbatini qo'shish mumkin. Oxirgi gaplar albatta yigitlarga ham tegishli. Yoshlik qilib, o'z tanasiga turli hasharotlarning rasmini tatuaj orqali chizdirgan yigit-qizlar, balki, o'zlarini madaniyatli,

zamonaviy insonlar deb sanashlari mumkin. Biroq... qosh ustiga, lab ostiga zirak taqish, dumg'aza ustiga rasm solish, har bir gapga ingliz



yoki boshqa tildagi so'zlarni qo'shib, o'zini “o'ta zamonaviy” deb bilish, aslida, madaniyatsizlikning

o'zidir. Muqaddas hadislarimizda inson o'ziga, tanasiga ozor yetkazish gunoh ekani qayd etilgan, bolani baxulq etib tarbiyalash jamiyatga yetkaziladigan eng katta zararlardan biri sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bu borada biz bilan o'z fikr-mulohazalarini o'rtoqlashgan suhbatdoshimiz Zebo Ahrorova shunday deydi:

– Afsuski, so'nggi paytlarda umuminsoniy tamoyillar va qadriyatlarining emas, balki “ommaviy madaniyat”ning ortidan ergashish hollari uchray turibdi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi insoniyatning

olg'a qadam tashlashiga sabab bo'lishi bilan birga egosentriзмning kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, voyaga yetmagan yoshlarning o'z qobig'iga o'ralib, yaqinlari, jamiyat manfaatlaridan ko'ra o'z manfaatlarini ustun qo'yish holatlariga yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, ota-onalar, qolaversa keng jamoatchilik hushyor bo'lishi zarur. Albatta, bodi-artga berilib, tanasiga turli taqinchoqlar taqib, naqshlar soldirib, “o'ziga xos” bo'lish oson, ammo ba'zi holatlarda badanda bir umr tamg'a bo'lib qoladigan bunday suratlarni yo'qotish juda qiyin. Tatuirovkani o'chirish natijasida badanda qoladigan yara izi o'sha qiz yoki yigitning qalbida ham dog' qoldirishi aniq.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bundaylarning o'ylamay bosgan har bir qadami qanday salbiy holatlarga olib kelishi mumkinligi haqida albatta, birinchi navbatda, ota-onalari o'smirlik davrini o'z boshidan kechirayotgan farzandlarining har bir qadamini kuzatishlari, do'stlari davrasidan xabardor bo'lishlari, eng asosiysi, farzandlari bilan ochiq gaplashib, o'g'il yoki qizlarining hissiy kechinmalaridan boxabar bo'lgan holda, ularning ishonchini qozonishlari lozim. Yoshlarimizning “ommaviy madaniyat” girdobiga tushib

qolmasligi biz – pedagoglardan ham hushyorlik talab etadi. Buning uchun ta'lim muassasalarida shifokorlar, ruhshunoslar, huquqshunoslar, mahalla oqsoqollari ishtirokida davra suhbatlari, ochiq muloqotlar o'tkazib, o'quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni, voqeani, kelayotgan axborotni tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish, sinfdan tashqari darslarda, tarbiyaviy soatlarda “ommaviy madaniyat” turlari va ko'rinishlarini muhokama qilish, zarur bo'lsa, mazkur mavzuga bag'ishlangan qo'shimcha darslar tashkil etish lozim.

Zero buyuk pedagog Abdulla Avloniy e'tirofiga ko'ra, tarbiya hayot va mamot masalasi bo'lib qolmog'i lozim.

Nargis QOSIMOVA,
jurnalist

O'zbekiston chempionati

ENG MOHIR POYGACHILAR ANIQLANDI



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi "Janubiy" avtopoligonida avtomobil halqa poygalari bo'yicha O'zbekiston chempionatining birinchi bosqich musobaqalari o'tkazildi.

Unda respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 46 nafar sportchi o'zaro bellashdi.

Poygachi sportchilar chempionatning "A-8" sinfida dvigatelning ish hajmi 1 100 sm³dan 1 600 sm³gacha bo'lgan, "A-9" sinfida dvigatelning ish hajmi 1 601 sm³dan 2 000 sm³gacha bo'lgan va milliy sinfida dvigatelning ish hajmi 1 600 sm³gacha bo'lgan sport avtomobillarida harakatlandi.



Murosasiz va qizg'in kechgan bellashuv quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"A-8" sinfida:

- 1-o'rin: Jamol Mirhosilov (Toshkent sh.);
- 2-o'rin: Shuhrat Jo'rayev (Namangan v.);
- 3-o'rin: Farrux Muratov (Toshkent sh.).

"A-9" sinfida:

- 1-o'rin: Farrux Urunov (Toshkent sh.);
- 2-o'rin: Temur Ahrorqulov (Jizzax v.);
- 3-o'rin: Avaz Qayumov (Namangan v.).

Milliy sinfida:

- 1-o'rin: Oleg Veremeyev (Toshkent sh.);
- 2-o'rin: Anton Glova (Toshkent sh.).

Umumjamoa hisobida:

- 1-o'rin: Toshkent shahri;
- 2-o'rin: Namangan viloyati;
- 3-o'rin: Toshkent viloyati.

Yakunda g'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

"Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari

VILOYAT BOSQICHI BAHSLARI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining Xorazm viloyati bosqichi o'tkazildi.

Qayd etish joiz, 2022 va 2023-yillarda o'tkazilgan "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining respublika bosqichida Xorazm viloyati ketma-ket g'alaba qozonib, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining ko'chma kubogini qo'lga kiritib keldi. Vohalik yoshlar joriy yildagi respublika bosqichida ham g'oliblikni qo'lga kiritishga astoydil bel bog'lagan. O'yinlarning viloyat bosqichida mahallalarda istiqomat qilayotgan 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 130 nafar yosh ishtirok etdi. Unda dastavval

13 ta jamoaning O'zbekiston harbiy tarixiga doir bilimi va safda qo'shiq aytish mahorati tekshirildi. So'ngra jamoalar a'zolari pnevmatik quroldan o'q otish, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashdi. Harbiylashtirilgan estafeta doirasida yoshlar avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va to'liq yig'ish hamda gazga qarshi niqobni kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajardi.

Duatlon, 100 metr masofaga yugurish va tumikda tortilish shartlarida esa yoshlar jismoniy tayyorgarlikka nechog'li ega ekanini namoyon etdi. Shiddatli va murosasiz kechgan harbiy sport o'yinlarining yakunida Shovot tumani jamoasi g'olib deb topildi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarga esa Hazorasp tumani va Urganch shahri jamoalari sazovor bo'ldi.

G'olib hamda sovrindorlar diplom, medal va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Muloqot

Ma'naviyat soati



Prezidentimizning tegishli qarori bilan haftaning har juma kuni prokuratura organlarida Ma'naviyat kuni etib belgilangan.

Ma'naviyat kunida xodimlar hamda jamoat va davlat arboblari ishtirokida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylangan.

Navbatdagi shunday tadbirlar doirasida taniqli aktyor, Zokirovlar sulolasi vakili, mashhur o'zbek pop-rok guruhi

"Bolalar"ning asoschilaridan biri, "Mendirman Jaloliddin" seriali va "Sotqin", "Baron" kabi qator filmlardagi rollari bilan tomoshabinlar orasida shuhrat qozongan Javohir Zokirov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan muloqotda aktyor o'z hayoti, ijod yo'li haqida so'zlab berdi.

Uchrashuv yorqin taassurotlarga boy bo'ldi.

**Adliya podpolkovnigi
Navro'z RAYIMOV,
O'zbekiston
Respublikasi Harbiy
prokuraturasi bo'lim
harbiy prokurori**

Uchrashuv

FAXRIYLAR E'ZUZDA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida uch avlod vakillari uchrashdi.

Harbiy prokuratura faxriylari va xodimlari ishtirok etgan tadbirni Bosh prokuror o'rinbosari - O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev olib bordi.

Muloqot davomida Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lganlar yorqin xotirasi yodga olindi. Shuningdek, Harbiy prokuratura organlarida uzoq yillar samarali xizmat qilgan faxriylarga ehtirom ko'rsatilib, ularning ibratli hayot yo'llari e'tirof etildi.

Jarayonda 60 yosh yubiley ayyomi

va tavallud kunlarini nishonlayotgan faxriylarga esdalik sovg'alar ulashildi. Xodimlardan bir guruhiga navbatdagi harbiy unvonlar, shu bilan birga farzandlari oliygohlarga kirishi uchun tavsiyanomalar topshirildi hamda kasbiy tanlov g'oliblari taqdirlandi.

Tadbirning ikkinchi qismida faxriylar va xodimlar O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyiga tashrif buyurdi.

**Adliya polkovnigi
Sherzod XAYITOV,
O'zbekiston
Respublikasi Harbiy
prokurorining
katta yordamchisi**

So'ragan edingiz

HUQUQIY maslahat



Savol: To'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari amalga oshiriladimi?

Javob: To'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridi;

favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovarlarning

(ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

sud muhokamasida ishtirok etish uchun advokatni (vakilni) tayinlash bilan bog'liq bo'lgan davlat xaridi;

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining mazkur intellektual mulk obyektlariga nisbatan mulq huquqqa ega bo'lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;

narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.

**O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
axborot xizmati**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

BUYUK IXTIROLAR

RAQAMLAR
QANDAY PAYDO
BO'LGAN?

Bolajonlar, ushbu maqolada biz sizlarga raqamlarning paydo bo'lishi haqida ma'lumot beramiz. Bir o'ylab ko'ring, zamonaviy hayotimizni tom ma'noda bizni qurshab olgan raqamlarsiz tasavvur qila olasizmi? Uy yoki telefon raqami, bankdagi hisob-kitoblar, vaqt va sana, matematik amallar – bularning barchasi raqamlardan iborat.

Agar ikkiga yana ikkini qo'shsak, unda to'rt hosil bo'ladi. Ammo siz kabi o'ylashni o'rganish uchun insoniyatga millionlab yillar kerak bo'lgan.

Qadimgi davrda odam nechta hayvoni borligini tushuntirmoqchi bo'lganida hali raqamlardan qanday foydalanishni bilmas edi. Ular hayvonlarning sonini bildirmoqchi bo'lsa, katta qopga qancha jonivori bo'lsa, shuncha tosh solardi. Jonivorlar qancha ko'p bo'lsa, toshlar ham shuncha ko'p bo'lardi. Ya'ni shu tariqa hisob-kitob qilardi. "Kalkulyator" so'zi lotincha "calculus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tosh" degan ma'noni anglatadi.

Davrlar o'tishi bilan odamzod turli hisoblash bitiklari uchun belgilardan foydalanishni o'rgandi. Ular har bir sanagan narsasini belgilash uchun chiziqcha yoki boshqa belgi chizadigan bo'ldi, lekin raqamlarni ta'riflaydigan so'zlar yo'q edi. Keyinroq odam qo'lidagi barmoqlari bilan hisoblashni boshladi. Bu davrda barcha mamlakatlar uchun yagona

hisob tizimi mavjud emasdi. Ba'zi hisoblash tizimlari asos sifatida 12, boshqalari 60, uchinchilari – 20, 2, 8 sonlarini olgan. Rimliklar tomonidan kiritilgan hisoblash tizimi butun Yevropada keng tarqalib, XVI asrga qadar foydalanilgan. Hozirgacha Rim raqamlari ba'zi soatlarda va kitoblarning boblarini belgilashda ishlatiladi, ammo bunday raqamlar tizimi juda murakkab edi.

Bugungi kunda biz foydalanadigan hisoblash tizimi ming yillar oldin Hindistonda o'ylab topilgan. Arab savdogarlari 900-yilga kelib, uni butun Yevropaga tarqatdi. Ushbu tizimda 1, 2, 3, 4... 9 va 0 raqamlari ishlatilgan. Bu raqamlar arab raqamlari deb ataladi.

Oddiy ko'ringan

bu raqamlar paydo bo'lishiga ancha vaqt, kuch va harakat ketgan. Hozirgi kunda deyarli butun dunyoda ushbu raqamlar tizimi ishlatiladi.

UCH O'G'IL
HAQIDA ERTAK

Bor ekan-u, yo'q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning uch o'g'li bo'lib, tirikchiligi o'rtamiyona ekan. Bir kuni dehqon uzoq safarga chiqmoqchi bo'libdi. Yo'lga chiqish oldidan o'g'illarini yoniga chaqirib, shunday debdi:

– Men uzoq yurtlarga ketyapman. Har biringizga bir juft tovuq, o'rdak va g'oz berib ketaman. Men kelgumicha ularning tuxumini sottinglar, lekin pulini sarflamay, yig'ib qo'yinglar. Keyin o'zingizga kerak bo'ladi.

Dehqon to'ng'ich o'g'liga bir juft tovuq, o'rtanchasiga bir juft o'rdak, kenjasiga esa bir juft g'oz beribdi-da, jo'nab ketibdi.

Oradan bir necha kun o'tgach, parrandalar tuxum qo'ya boshlabdi. Uch o'g'il tuxumlarni sota boshlabdi. Qo'lga pul tushgan katta o'g'ilning fikri buzilibdi. "Tuxumning pulini yig'ib nima qildim?! Undan ko'ra yaxshilab o'ynab olay. Dadam kelib, tuxumning pulini so'rasa, tovug'ingiz tug'mas ekan, deyman", degan xayolga boribdi. O'rtancha o'g'il oldin o'rdakning tuxumlarini, keyin o'rdaklarini ham sotibdi. Ikki aka-uka do'ppisini yarimta qilib

yuraveribdi. Kenja o'g'il esa g'ozning tuxumlarini yig'ib, bostiribdi. G'ozlarni ko'paytirib, ularning tuxumini sotibdi.

Otasi kelguncha anchagina pul yig'ibdi. Otasi safardan qaytgach, to'ng'ich o'g'lini huzuriga chaqiribdi. U oldindan tayyorlab qo'ygan javobini aytibdi. "Qariganimda kunimga asqatmas ekansan", deya ko'nglidan o'tkazibdi ota. O'rtancha o'g'lini chaqirgan ekan, u ham yolg'on gapiribdi. "Sen menga qarash tugul o'zingni ham eplolmas ekansan", deb xafa bo'libdi ota. Kenja o'g'il otasi gap boshlamasidanoq tuxum sotib yig'gan pullarini beribdi. "Barakalla! Sen bilan xor bo'lmas ekanman", deya suyunibdi ota.

Oradan yillar o'tibdi. Ota avval ikki katta o'g'lini, keyin kenjasini uylantirib qo'yibdi. Ammo katta o'g'illari tez orada uyidagi bor bisotini sotib, yeb-ichib tugatibdi-da, yana otasining qo'lga qaram bo'lib o'tiraveribdi.

Kenja o'g'il esa tadbirkorlik bilan shug'ullanib, kundan kunga hayoti yaxshilana boshlabdi. Otasining hurmatini joyiga qo'yib, izzat-ikrom ko'rsatibdi. Dehqon kenja o'g'lidan rohat-farog'at ko'ribdi.

O'zbek xalq ertagi

Zukko qiz

Bobomga, buvinga dastyorman,
Ukamga, singlinga hushyorman.
Kashtalar tikaman berilib,
Buwijonim ketar sewinib.

Maktabda ham yaxshi o'qiyman,
Goh ba'zida she'rlar to'qiyman.
Lek orzuyim boshqadir asli,
Davolasam katta-yu yoshni.

Maqsadim – zo'r shifokor bo'lish,
Hech kinga dard bermasin tashvish.
Chanqoqman shu sabab bilimga,
Shifokor bo'laman elimga.

Zulfiya YUNUSOVA

Xorij armiyalarida

Malayziya – Janubi-Sharqiy Osiyodagi davlat. Hududini Janubiy Xitoy dengizi ikkiga ajratib turadi, Malayziyaning g'arbi Malakka yarim orolining janubida, sharqiy tomoni esa Kalimantal orolining shimoliy qismida joylashgan. Ma'muriy jihatdan 13 shtat va 2 federal hududga bo'linadi, poytaxti – Kuala-Lumpur shahri. Malayziya – federativ davlat, konstitutsiyali monarxiya.

Malayziya Qurolli Kuchlari XX asrning birinchi yarmida Singapur, Britaniya mustamlakachiligining subyektlari bo'lgan paytdan 1957-yilda mustaqillikka erishgunga qadar vujudga kelgan harbiy kuchlarni birlashtirish natijasida tuzilgan. Malayziya Qurolli Kuchlari uchta bo'limdan iborat bo'lib, quruqlikdagi qo'shinlar, dengiz floti va harbiy havo kuchlarini o'z ichiga oladi. Malayziya Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni Malayziya Qirolli hisoblanadi.

O'ZARO MUZOKARAGA ASOSLANADI

Malayziya dengiz floti 1934-yil 27-aprelda tashkil topgan. 1938-yilda Penang filialining shakllanishi uni yanada kengaytirdi. Ikkinchi jahon urushi boshlanganda Britaniya, Singapur va Malayziya xavfsizligini himoya qilish uchun "Qirolik dengiz flotining malay bo'limi" deb nomlangan bo'linmani tashkil qilish orqali Janubi-Sharqiy Osiyodagi dengiz kuchlari kuchaytirildi. 400 kishidan iborat bo'lgan ushbu bo'linma Singapurdagi Britaniya harbiy dengiz bazasidagi "Pelandok" deb nomlangan o'quv maydonida tayyorgarlikdan o'tdi. 1947-yilning aprelida mablag' yetishmasligi sababli inglizlar Ikkinchi jahon urushidan keyin kuchlarni tarqatib yubordi. Qirolliqa Yelizavetta Malayziya dengiz flotiga qirolik maqomini berdi. 1963-yil 16-sentabrda uning rasmiy nomi Malayziya Qirollik dengiz floti deb o'zgartirildi.

1970-yillarda Britaniya kuchlarining mintaqadan olib chiqib ketilishi va 1980-yillarning boshida kommunistik tahdidning barham topishi bilan Malayziya Qurolli Kuchlari imkoniyatlarini rivojlantirish jarayoni boshlandi. 1990-yillarning boshida mudofaa kuchlarini modernizatsiya qilishga ahamiyat berildi.

Malayziya hukumati mudofaaning dastlabki yo'li diplomatiya, kuch ishlatish esa so'nggi chora ekanini ta'kidlaydi. Bu

MALAYZIYA MUDOFAA TIZIMI



o'zaro muzokaraga asoslangan siyosatdir. O'z o'rimda kelajakda suvereniteti va hududiy yaxlitligi borasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni butunlay e'tiborsiz qoldirmaydi. Shu maqsadda davlatni tashqi ta'sirlardan himoya qilish uchun asosiy imkoniyatlarni rivojlantirib bormoqda. Vaziyatdan kelib chiqib, mamlakat harbiy strategiyasi qo'riqlovchi, himoya qiluvchi mudofaa pozitsiyasiga moslashadi. Mintaqa va undan tashqaridagi davlatlar bilan harbiy aloqalarni mustahkamlash, mudofaa diplomatsiyasini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Malayziya armiyasi hayotini muntazam yoritib kelayotgan ommaviy axborot vositalaridan biri "Malaysia Military Times" nashri bo'lib, mamlakat mudofaasi tizimidagi eng so'nggi xabar va yangiliklarni internet tarmog'ida ham uzatib boradi.

HAR BIR RINGGIT NAZORATDA

Mudofaa sohasini boshqarishning asosiy jihati byudjet tizimidir. U Malayziya Qurolli Kuchlari salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi. Garchi Mudofaa vazirligiga mudofaa mablag'larini boshqarish vazifasi yuklatilgan bo'lsa ham, hukumat departamentining iqtisodiy rivojlantirish bo'limi asosiy mudofaa dasturlari bo'yicha yakuniy qarorni qabul qiladi. Boshqa mamlakatlar singari Malayziyada ham mudofaa uchun mablag' taqsimoti byudjet va hukumatning imkoniyatlariga bog'liq. Bu milliy harbiy strategik maqsadlar yo'lida sarflansa-da, Malayziyaning mustaqillikka erishgandan beri olib borayotgan oqilona siyosati tinchlik va barqarorlik faqat qurol bilan ta'minlanmasligini targ'ib qiladi.

Mudofaa uchun rasmiy byudjet tizimi besh yilga asoslangan bo'lib, yillik

byudjetni besh yillik rivojlanish xarajatlaridan kelib chiqqan yillik smetalar tashkil etadi (2006-yildan 2010-yilgacha mudofaa uchun 14,5 milliard ringgit ajratilgan). Operatsion xarajatlarni rahbarlik va ishchi kuchini rivojlantirish darajasiga qarab yo'naltiriladi. Unda Mudofaa vazirligi harbiy muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish, qurol-aslahalar va ehtiyot qismlarini xarid qilish kabi maqsadlar belgilangan. Misol uchun, harbiy qurollar, samolyot va kemalarni xarid

qilish ana shu rivojlanish xarajatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, harbiy bazalar, harbiy xizmatchilar uchun turarjoylar qurilishiga qaratilgan xarajatlarni ana shu mablag'lardan qoplanadi. Yillik hisob-kitoblardan keyingi yillar uchun umumiy xizmat xarajatlari bo'yicha takliflar tayyorlanadi va ular davlat byudjetiga taqdim etiladi. Besh yillik loyiha-rejalar sarmoya kiritish tendensiyalarini belgilab beradi.

Mudofaa uchun sarflangan har bir ringgit parlament tomonidan tasdiqlanadi va bu pul federal auditor tomonidan tekshiriladi. Federal auditing yillik hisoboti asosida Jamoat hisobotlari qo'mitasi mudofaa xarajatlardagi nomuvofiqlar to'g'risida tushuntirish uchun mudofaa bo'yicha yuqori lavozimdagi amaldorlardan hisobot talab qilishga haqli.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi Iqbolxon HAMZAYEVA tayyorladi.



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhif: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5749
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 34 209 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqra boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya